

9b-B
30.11

Saida Fazliddinova



MAXSUS RASMI



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих выдач	Число случаев	Процент
1	10	100,0
2	1	10,0
3	0	0,0
4	0	0,0
5	0	0,0
6	0	0,0
7	0	0,0
8	0	0,0
9	0	0,0
10	0	0,0
11	0	0,0
12	0	0,0
13	0	0,0
14	0	0,0
15	0	0,0
16	0	0,0
17	0	0,0
18	0	0,0
19	0	0,0
20	0	0,0
21	0	0,0
22	0	0,0
23	0	0,0
24	0	0,0
25	0	0,0
26	0	0,0
27	0	0,0
28	0	0,0
29	0	0,0
30	0	0,0
31	0	0,0
32	0	0,0
33	0	0,0
34	0	0,0
35	0	0,0
36	0	0,0
37	0	0,0
38	0	0,0
39	0	0,0
40	0	0,0
41	0	0,0
42	0	0,0
43	0	0,0
44	0	0,0
45	0	0,0
46	0	0,0
47	0	0,0
48	0	0,0
49	0	0,0
50	0	0,0
51	0	0,0
52	0	0,0
53	0	0,0
54	0	0,0
55	0	0,0
56	0	0,0
57	0	0,0
58	0	0,0
59	0	0,0
60	0	0,0
61	0	0,0
62	0	0,0
63	0	0,0
64	0	0,0
65	0	0,0
66	0	0,0
67	0	0,0
68	0	0,0
69	0	0,0
70	0	0,0
71	0	0,0
72	0	0,0
73	0	0,0
74	0	0,0
75	0	0,0
76	0	0,0
77	0	0,0
78	0	0,0
79	0	0,0
80	0	0,0
81	0	0,0
82	0	0,0
83	0	0,0
84	0	0,0
85	0	0,0
86	0	0,0
87	0	0,0
88	0	0,0
89	0	0,0
90	0	0,0
91	0	0,0
92	0	0,0
93	0	0,0
94	0	0,0
95	0	0,0
96	0	0,0
97	0	0,0
98	0	0,0
99	0	0,0
100	0	0,0

Saida Fazliddinova

MAXSUS RASM

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Qayta ishlangan va to'ldirilgan oltinchi nashri

Cravath

48

CHIRCHIQ
IJTIMOIY-IQTISODIYOT
KOLLEJI
AXBOROT-RESURS
MARKAZI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
O'ZBOMARKET
O'ZBOMARKET VILOYATI CHIRCHIK
O'ZBOMARKET RESURS MARKAZI

«VNESHINVESTPROM»
TOSHKENT-2014

UO'K: 514.17 (075)
KBK 30.11ya722

F18

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi ilmiy-metodik kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Maxsus muharrir:

A. Karimov — Quva qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

Taqrizchilar:

I.Q. Ergashev — Farg'ona Politehnika instituti ishlab chiqarish amaliyoti bo'lim boshlig'i, dotsent;

B. Zokirov — maxsus fanlar bo'yicha kafedra mudiri.

Fazliddinova, S.

F18 Maxsus rasm: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/
S. Fazliddinova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi. — Oltinghi nashri
— T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. — 88 b.
ISBN 978-9943-05-701-2

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 332-sonli buyruq 15.08.2012-yilda tasdiqlangan fan dasturlari asoslanib yozildi. Dasturga binoan qo'llanmada oddiy geometrik shakllarning turlari, chizilishi, perspektiva va kompozitsiya va soyalar, kishi tana to'shalgan holda hosil bo'ladigan taxlamalar va sexema asosida va kiyim tuzilishidagi nisbiylik, ranglar to'g'risida, gavydani kiydirilgan holatda chizish kabi mavzular o'rin olgan.
Qo'llanma o'qituvchilarning bilim va malakalarini hisobga olib, oddiydan murakkabga usulida tayyorlangan.

O'quv qo'llanmadan tasviriylar san'atiga aloqador va qiziquvchilar, shu yo'nalishda dars beradigan o'qituvchilar, kasb-hunar kolleji tikuvchilari yo'nalishida tahsil oladigan o'quvchilar foydalanishlari mumkin

UO'K: 514.17 (075)
KBK 30.11ya722

© S. Fazliddinova, 2014
© «Cho'lpon» nomidagi NMIU, 2014
© «Cho'lpon» nomidagi NMIU, 2014
© «VNESH INVESTPROM», 2014

ISBN 978-9943-05-701-2

I. KIRISH

I.1. FANNING TIKUVCHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDAGI VA KIYIM MODELINI YARATISH HAMDA KONSTRUKSIYASINI QURISHDAGI O'RNI

«Maxsus rasm» fani o'quvchilarni fikrni jamlashga va har bir qadamda go'zal ko'rinishlarini yaratishga chorlaydi. Estetik tashviy yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarning har birini idrok etish va tushunishlari, kishilarning hissiyot dunyosini chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Ularning ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

O'quvchilar tabiatda, odamlar orasidagi munosabatlarda, mehnatda go'zallikni ko'radigan bo'ladilar. Shuningdek, ularning hayotga go'zallik kiritish malakalarini oshiradi va badiiy fikr darajasi kengaytiradi.

O'quvchilarda bu sifatlarini rivojlantirishda estetik tarbiyaning muhim vositalaridan biri — «Maxsus rasm» fanining roli katta.

O'quvchilarni estetik tarbiyalash ularning go'zal narsalarga munosil munosabatda bo'lishlari, badiiy faoliyat va san'atga bo'lgan qiziqishlari kuchayib borayotganligi bilan belgilanadi. O'quvchilar ijodiy qobiliyatini shakllantirishning asosini ko'z tutishi, kuzatish qobiliyati, obrazli tafakkur, fazoviy tushunchalarini muntazam va maqsadga muvofiq ravishda o'stirib bo'lishi tashkil etadi.

Rangni his qila olish, ranglar bilan ishlay bilish malakalarini shakllantirish ham bu fanning muhim vazifalaridandir. Uning kishilar kundalik hayotida turmush va mehnat uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratishda hamda tikuvchilik kasbi uchun juda katta ahamiyatga ega.

Amaliy ishlar mazmunining qo'llaniladigan texnikasiga qarab badii-tumani bo'lishi ijobiy samaralar omilidir.

Darada tabiiy materiallar: akvarel, guash, tush, plastilin, temoster kabi bo'yoqlardan foydalanish va materiallarni kesish, yig'indash kabilar yaxshi natija beradi. Darslarda ritm, simmetriya, asimetriya haqida yuritiladigan fikrlar, buyuk rassomlarning hayotiga oid rasmlar chizish geometriya fanidan ba'zi

bir materiallarni puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Mashg'ulotlarni narsa yoki modelning o'ziga qarab va tasavvurdan rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, suhbat o'tkazish asosida tashkil qilish mumkin.

Narsaga qarab va tasavvurdan rasm chizish mashg'ulotlarida o'quvchilar borliqdagi narsalarning shakli, tuzilishi, rangi va shu kabi xususiyatlarni ularning bir-biridan farqi va o'xshash tomonlarini solishtirish orqali aniqlashni o'rganadilar.

Dekorativ rasm chizish o'quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar bunday darslarda dekorativ amaliy san'at, ayniqsa, xalq amaliy san'ati asarlari bilan tanishadilar, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar. Shuningdek, darslarda amaliy san'atdagi ritm, simmetriya, asimmetriya, siluet, ifodalilik vositalari haqida bilimga ega bo'ladilar. Dekorativ ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mavzu asosida rasm ishlashga badiiy asarlarni o'qib, shular asosida sujetli rasm ishlash; tabiat va jamiyatdagi voqealarni kuzatish orqali sujetli rasm chizish kiradi.

Hozirgi kunda tikuvchilik sanoati mutaxassislari oldida eng yuqori estetik talablarga javob beradigan modabop va zamonaviy, oddiy va bejirim kiyim modellari yaratish vazifasi turibdi.

Rasm chizish ko'nikmasini egallash, shuningdek, maxsus va amaliy rasmni tushunish zaruriyatining kelib chiqishiga sabab shuki, bo'lajak tikuvchilar ishlab chiqarish uchun rejalashtirilgan mahsulot qanday bo'lishini oldindan tasavvur qila olishlari kerak.


Bu esa, o'z navbatida, kiyim tikish usullarini, loyihalash va modellashtrish qonunlarini bilishni talab qiladi, shuning uchun rasm chizishga oid mashg'ulotlar tikuvchilik texnologiyasi va loyihalashni o'rganish bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim.

Bugungi kunda inson ilmiy bilish va amaliy faoliyatining hech bir sohasini tasviriy (yaqqol) axborotsiz, ya'ni mazmunli grafik vositalari bilan ifodalamay, rasmlar yordamida tasvirlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilarni rasm chizishga o'rgatishda ularda jismlarni tasvirlash uchun zarur bo'ladigan ko'z bilan chamalash, mutanosiblikni izlash va shaklini tushunish kabi xususiyatlarni rivojlantirish juda muhim. Kiyimlar ishlab chiqaradigan bo'lajak mutaxassislar o'z faoliyatlarini rasm chizishga oid oddiy mashqlardan boshlashlari, ularni asta-sekin murakkablashtirib borishlari va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini

o'stirishlari shart. Barmoqlarni zo'riqtirmaslik uchun qalam chiqarilgan uchidan ozgina yuqoriroqdan qismay ushlanadi.

Rasm butun ko'rinish maydonida bo'lishiga alohida e'tibor berish (rasm qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik yaqin qo'yilishi kerak), uning shakli va proporsiyalarini aniqroq aniqlashga erishish zarur. Buni vizirlash usuli bilan amalga oshirish mumkin.


Vizirlash jism va uning qismlari o'lchamlarining proporsional nisbatlarini qalam yordamida aniqlash usulidir. Bunda qalamli qo'l oldinga cho'zilib, ko'z va jism orasida tutiladi.



1-rasm. Rasm chizishda qalamning holati.

Jismning eni va balandligi orasida nisbat aniqlanishi uchun qalam ushlab turilgan o'ng qo'lning jism tomonga cho'zib, bir ko'z berkitiladi. Qalamni gorizontaal ushlab, uchi jismning chap konturiga to'g'ri keltiriladi va bosh barmoq bilan qalamga jismning o'ng konturi belgilanadi. Qalamni tik holatda tutib, belgilangan kenglikning katta yoki kichikligi o'lchanadi. Agar qalamdagi kesma balandlikka 2,5 marta sig'sa, tasvirni chizib, rasmda jismning balandligini 2,5 bo'lakka burish kerak.

Chiziq — rasmning asosiy elementlaridan biri. Qalam uchi yoki boshqa asbob bilan erkin chiziladigan, qog'ozda iz qoldiriladigan chiziq ongli ravishda yo'naltiriladi va to'g'rilanib turiladi. Chiziqlar bilan chizilgan rasmni *chiziqli* yoki *grafikaviy rasm* deb atash qabul qilingan. Inson tasvirlash faoliyatining boshqa istalgan turi kabi, amaliy rasm chizish ham qobiliyatdan tashqari, insonning ijro texnikasini yaxshi egallab olishini talab etadi. Bunga ish o'rini to'g'ri tashkil qilish va rasm chizish uchun kerak bo'ladigan ashyolarni to'g'ri tanlash va bir me'yorda yoritish yordam beradi.



2-rasm. Rasm chizishda qalamning holatlari.

Rasmni tikka turib va o'tirib chizish mumkin, lekin o'tirib chizgan ma'qulroq. Qog'oz qadalgan planshetning yuqori qismi taglik ustida, pastki qismi esa rasm chizuvchining tizzasida turadi. Rasm chizayotganda erkin, yelkani bukmasdan, boshni biroz engashtirib, to'g'ri o'tirish zarur. Rasm qog'ozining o'rtasi ko'rish nurlari yo'nalishi 90 gradusga yaqin bo'ladigan darajada ko'z oldida turishi kerak. Rasm chizishda qalamlar, qog'oz, bo'yoq, palitra, malbert kabi ashyolar ishlatiladi. Qalamlar yumshoq (3M dan 6M gacha) va o'rtacha qattqlikda (TM) bo'lishi shart.

Tayanch iboralar

Emotsional, ritm, simmetriya, asimmetriya, siluet, dekorativ, vizirlash, palitra, malbert.

Nazorat savollari

1. «Maxsus rasm» fanining maqsadi nima?
2. Simmetriya va asimmetriya so'zlarini izohlab bering.
3. Vizirlash usulini tushuntirib bering.
4. Rassomning ish o'rnini qanday bo'lishi kerak?
5. Dekorativ rasm chizishning qanday ahamiyati bor?

Adabiyotlar

1. P. Xacano. Мактаб тасвирий санъат машуротларини максимизациялаштириш йўллари. — Т.: Ўқитувчи, 1986.
2. P.M. Букча. Чизмачилик ва махсус расмлар чизиш. — Т.: Ўқитувчи, 1978.

I.2. PERSPEKTIVA VA KOMPOZITSIYA HAQIDA TUSHUNCHA. GEOMETRIK JISMLAR RASMINI CHIZISH

Agar kuzatilayotgan jism (natura) kuzatuvchidan ma'lum masofa narida yotsa, shu naturaning haqiqiy o'lchamlari, qiyofasi va aniqligi o'zgargandek bo'lib tuyuladi. Kuzatiladigan naturalar bir-biridan qanchalik uzoq joylashsa, perspektiva qisqaruv shunchalik yaqqol ifodalanadi.

Perspektiva — kuzatuvchining ko'zi jismni qanday ko'rsa, naturaning tekisligidagi shunday tasviri.

Perspektiva tasviriy san'at grammatikasidir. Shuning uchun ham har bir yaratiladigan tasviriy san'at asarining avvalo perspektiva qonun-qoidalariga amal qilingan holda eskizi ishlab chiqiladi. Perspektiva fani chizma geometriya predmetidagi markaziy proyeksiyalash mavzusiga asoslanganligi tufayli u realistlik rasm yaratilishida ilmiy baza bo'lib, narsalarni ko'z o'ngimizda qanday ko'rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi.

Perspektivaga oid boshlang'ich ma'lumotlarni Anaksagor (eramizdan 500 yil oldin), Demokrit (eramizdan oldin) 460—370-yil va Esxil (eramizdan oldingi 525—456-yillarning) asarlarida uchratamiz. Ular dekoratsiyalar (dekoratsiya-sahna yoki ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan joyni mavzuga muvofiq badiiy bezash) uchun rasmlar chizishda perspektiva qoidalari bilan shug'ullanganlar. Eramizdan 400 yil oldin yashagan Eliodor Larneskiy narsalarning ko'rish qonunlarini ochganlardan bo'lib, kuzatish perspektivasi bo'yicha birinchi ma'lumotlarni qoldirgan. Yevklid (eramizdan oldingi III asr) o'zining «Optika» (perspektiva) kitobida 12 ta aksioma va 61 teoremani bayon qilib, kuzatish perspektivasini, ya'ni kishi narsaning hajmi va shaklini ko'rish qonunini hamda tekis va egri ko'zgulardan qaytuvchi nurlar nazariyasini yaratdi. Rimliklar perspektiva qoidalarini yaratishda me'morchilik namunalari barpo etishga asos soldilar. Ana shunday me'morlardan Marka Vitruviy (eramizdan oldingi I asr) tekislikda binolarning tasvirlarini yasash usullarini ishlab chiqdi.

Eramizdan oldin II asrda yashagan mashhur astronom Ptolomey ham perspektiva bilan shug'ullanib, narsalarni ko'rishda uning hajmi, shakli, rangi va soyasi bilan bog'liq masalalarni ishlab chiqqan.

Evklid va Ptolomey asarlarida kuzatish perspektivasiga oid juda ko'p masalalar yoritilgan. Shunga qaramasdan o'sha davr rassomlari tomonidan yaratilgan asarlarga perspektiva qoidalari to'la tatbiq qilinmagan. Asosan, perspektiva qoidalari teatr dekoratsiyalarida qo'llanib kelingan bo'lib, uyg'onish davriga kelganda perspektiva fanida juda katta o'zgarish yuz beradi.

Uyg'onish davrining buyuk siymosi, italiyalik buyuk rassom va olim Leonardo da Vinci (1452–1519) perspektivaga oid juda ko'p yangiliklar kiritdi. U tabiatni kuzatar ekan, perspektivada uch yo'nalish borligini aniqlab, bir xil kattalikdagi narsalar uzoqlashgan sari bir to'g'ri chiziqli bo'yicha kichiklashib borishini aytadi. U bunday hodisani chiziqli perspektiva deb atadi¹.

Ikkinchidan, o'zining tabiatda o'tkazgan kuzatishlaridan birida narsalar kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlamining qalinlashishi natijasida ularning rangi o'zgarib borishini aniqladi. Leonardo da Vinci o'zining asarida: «Perspektiva tasviriy san'atning rulidir», deb yozgan edi.

Nemis rassomi va o'ymakori Albrext Dyurer (1471–1528) o'z risolasida tekislikda perspektiv tasvirlarni yasashda ortogonal (to'g'ri burchakli) proyeksiyadan foydalanishni tatbiq qilish usulini yozgan. U birinchi bo'lib perspektiv apparatda tasvirni yasashda ko'rish nuqtasining qo'zg'almas ekanligini isbotladi.

Chiziqli panoramali va qubali perspektivalarning rivojlanishida Uyg'onish davrining buyuk haykaltarosh va rassomlari: Mikelanjelo Buanarroti (1475–1561), Rafael Santi (1483–1520) va Bramante (1444–1514) ning xizmatlari juda ulkan. Ayniqsa, Mikelanjelo relyefli perspektivaning, Rafael esa qubali perspektivaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Italiyalik olim Gvido Ubaldi (1545–1607) 1600-yilda «Perspektivadan oltita kitob» nomli asarda perspektivaning asosiy masalalarini nazariy jihatdan yoritib berdi.

Fransuz me'mori hamda matematigi Jerar Dezarg (1592–1662) o'zining 1636-yilda nashr qilingan «Narsalarni perspektivada tasvirlashning umumiy usuli» degan asarida birinchi

bo'lib, perspektiv tasvir yasashda koordinatalar usulidan foydalanishni bayon qildi.

Analiitik perspektivada tekislik yoki to'g'ri chiziqli perspektivasi nuqtalar o'rni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu yerda tasvir (perspektiva) grafik-analiitik usulda yasaladi.

Geometrik perspektivada — tasvirlar yasashning o'zagi hisoblanadi. Tasviri yasaladigan sirtning turiga qarab, geometrik perspektiva quyidagi turlarga bo'linadi: *chiziqli perspektiva*, *panoramali perspektiva*, *diogramali perspektiva*, *qubali perspektiva*, *relyefli perspektiva*, *teatral perspektiva*, *arxitekturali perspektiva*, *stereoskopiyali perspektiva*.

Kinoperspektiva. Harakatdagi narsalarning tasvirini yasashda qo'llaniladi.

Aeroperspektiva. Bu perspektiva samolyotdan turib yerdagi obyektning tasvirini yasashda yoki aerofoto usul bilan surat olishda qo'llaniladi. Yuqorida bayon qilib o'tilgan perspektiva turlari insoniyat tarixi bilan bog'liq holda rivojlanib keldi va bundan keyin ham rivojlanib bormoqda. Perspektiva qoidalarini qo'llashda gorizont chizig'ining ahamiyati katta bo'lib, ushbu chiziqli tasviriy san'atda ufq chizig'i sifatida qo'llaniladi.

Modalar jurnalidagi modellar rasmlarini tushunish uchun tikuvchilik sanoati xodimlari perspektivaning asosiy qonunlarini bilishlari shart.


3-a rasmda surat tekisligi orqasida yotgan naturani tasvirlash uchun misol keltirilgan (K — perspektivadagi surat tekisligi yoki qisqacha surat). Gorizont tekislik N naturo tekisligi deb ataladi. Barcha proyeksiyalovchi nurlar ko'rish nuqtasi S orqali o'tadi. Gorizont chiziqli rasm chizuvchining ko'zi sathida yotadi. (Perspektivada uni s , ch yoki hh harflari bilan belgilash qabul qilingan.) Gorizont chiziqli surat tekisligiga parallel yoki istalgan burchak ostida yotishi hamda unga perpendikular bo'lishi mumkin. Agar parallel to'g'ri chiziqli naturo tekisligida yotsa yoki unga parallel bo'lsa, ularning perspektivalari har doim gorizont chizig'ida uchrashadi.

Gorizont chizig'iga parallel bo'lgan parallel to'g'ri chiziqlar uchrashish nuqtalarini R geometrik o'rni sifatida qarash mumkin (3-b rasmd).

Surat tekisligida ixtiyoriy burchak ostida yotgan gorizont joylashgan kvadrat (kub tomoni)ga qaraganimizda uning parallel tomonlari qisqarayotganligi va uchrashish nuqtalari FF_1 ga

¹ М.Н. Макарова. Перспектива. — М.: «Просвещение», 1984.


tomon yo'nalayotganligi, uchrashish nuqtasi (suratning asosiy nuqtasi) kvadratdan o'ng tomonda, boshqa ikki parallel chiziq uchun esa chap tomonda yotadi. Kvadrat ko'zimizga no-muntazam to'rtburchaklik bo'lib ko'rinadi.



3-b rasim. Rasmda perspektiva qonunlarining qo'llanilishi.

Aylana perspektivasini chizishda kvadrat yasash shart emas. Bunda proporsiya va diagrammalarning bo'lish yo'nalishini aniqlash kifoya. 4-b rasmda ko'rsatilgan vertikal silindr (chelak) ning perspektivasi. Uning asosi ellips shaklida, katta o'qi gorizonttal, kichik o'qi esa suratning asosiy nuqtasi tomonga yo'nalgan bo'ladi. Ellipsning bizga yaqin yarmi bizdan uzoq yarmidan kengroq, silindr yasovchilari esa vertikal yo'nalgan. Vertikal silindrnng shakli gorizonttal chizig'i vaziyatiga qarab o'zgaradi.

Manikenda bichiq chizig'ini belgilashdan oldin bu chiziqlardan qaysisi vertikal, qaysisi gorizonttal yoki qiya yo'nalganligini, ular biz tomon qanday yo'nalishda o'rnatilganligi va modelning qaysi chiziqlari o'zaro parallelligini aniqlash lozim.



4-rasim. Aylana perspektivasi.

So'ngra gorizonttal chizig'i hamda parallel chiziqlari ayrim guruhlarining uchrashish nuqtasi modelga nisbatan qanday yotganligini aniqlash kerak. Uchrashuv nuqtasi rasm chiziladigan qog'ozning chetidan ancha narida ham yotishi mumkin. Bunday holda uning vaziyati taxminan belgilanadi.

Jismlar har xil yoritilganda va kuzatuvchiga nisbatan turlicha yotganda ularning ton va rang jihatdan o'zgarishi havoii perspektiva tushunchasiga kiradi.

Yaqin va uzoq masofada yotgan jismlar bir-biriga taq-qoslanib, fazoda chuqurlashgan sari och va to'q tomonlarining qarama-qarshiligining asta-sekin kamayganini ko'ramiz. Yaqinda yotgan jismlarni ikir-chikrigacha, uzoqda yotganlarining esa umumiy qiyofasiningina ko'ramiz. Masalan, daraxtlar qanchalik uzoqda yotsa, ularning ustki barglari shunchalik umumiyroq, tanasi ensiz yassi mitti shaklda, gorizontdagi o'rmon esa tutun bilan qoplangan och yassi yalanglikka o'xshab ko'rinadi. Undagi ayrim daraxtlarni farqlab bo'lmaydi.

Perspektiva — qisqarish ma'nosini anglatib, unga havo perspektivasi, tabiatdagi har xil perspektivalar, masalan, yo'l, temiryo'llarning olis ufqda qisqarishi va hokazolar kiradi.

Kompozitsiya so'zi «komposio» so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va

birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Kompozitsiya tasviriy san'at sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tanlangan obyekt — naturaning portreti va hokazolarni ma'lum o'lchamdagi mato, karton va boshqalarga to'g'ri, «chiroyli» joylashtirish, ya'ni «kompanovka» qilishdan iborat.

Kompanovka chizilishi lozim bo'lgan natura (jism)ni, manzara va boshqalarni qog'ozga to'g'ri, chiroyli joylashtirishdir.

Tasvirni yaxshiroq joylashtirish uchun jismning qog'ozdagi rasmini xayolan tasavvur qilib, uning umumiy shakli va asosiy qismlarining o'zaro holati bilinar-bilinmas chiziqlar bilan belgilab olinadi. Bunda qog'ozning rasm egallagan yuzasi bilan bo'sh yuzasi orasidagi nisbat saqlanadi.

Bir joyga juda ko'p rasm yoki uning yirik elementlarini joylashtirish yaramaydi. Rasmi qog'ozning o'rtasiga joylashtirish kerak. Qog'oz o'rtasi deyilganda uning pastki yuzasi ustki yuzasidan ancha enli, yon yuzalari esa bir xil bo'lishi shartligi tushuntiriladi.

Qog'ozning pastki yuzasi yana shuning uchun ham kengroq bo'lishi kerakki, odatda, rasm ostiga yozuv joylashtiriladi. Agar qog'ozda rasmning bir necha elementi joylashgan bo'lsa, ular orasida yon yuzalardan kamroq masofa qoldirish kerak, aks holda rasm tarqoq joylanadi.

Kompozitsiyada rassomning vazifasi ayrim tarqoq jismlarni yaxlit, bir butun jismga aylantirib tasvirlashdan iborat. Kompozitsiyali rasmini o'zgartirish yoki rasm elementlarini olib tashlash mumkin emas, aks holda tasvir yaxlitligi buziladi.

Nazorat savollari

1. Perspektiva nima?
2. Perspektivaning asosiy qonunini tushuntiring.
3. Kompozitsiya so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib bering.
4. Kompozitsiya bilan kompanovkaning qanday farqi bor?
5. Rasm qog'ozga qanday joylashtiriladi?

Adabiyotlar

1. Н. Норманов. Камалак яшайдиган уй. — Т.: «Ўқимус», 1983.
2. Р.М. Буха. Чизмачилик ва махсус расмлар чизуш. — Т.: Ўқимус, 1978.

I.3. GEOMETRIK SHAKLGA EGA BO'LGAN JISMLARNI CHIZISH

Simmetrik figuralar rasmini chizishda qog'oz beti simmetriya o'qini aniqlash va tasvirlash, uni shu o'qqa nisbatan simmetrik nuqtalarning vaziyatiga mos bo'laklarga bo'lish, bu nuqtalarni kontur bo'yicha birlashtirish, ko'z bilan chamalab proporsiya va simmetriklikni tekshirish kerak (shakllarning simmetrikligi muhim ahamiyatga ega, chunki ko'pincha kiyim modellarini aniq qiyofa va qat'iy simmetriyada, ya'ni old tomondan tasvirlashga to'g'ri keladi).


Yassi rasm chizish hajmiy jismlarni tasvirlashga tayyorgarlik hisoblanadi. Jismlarning asliga qarab yoki xotiradan chizish mumkin. Jismini xotiradan chizish uchun xarakterli ma'lumotlar iloji boricha ko'proq bo'lishi zarur, lekin jismning aslini chizish uchun uni kuzata bilish shart.

Yassi figuralarning uzunligi (yoki balandligi) va eni ikki o'zaro perpendikular asosida aniqlanadi. Agar kattalikni aniq bilish uchun jism uchining o'lchami qolishi kerak bo'lsa, u holda bunday shakl geometrik jismning fazoviy shakli deb ataladi. Yassi shaklli ikki geometrik jismning uch o'lchami bo'ladi.

Quyidagi elementlar (geometrik jismlar): prizma, sharlar, piramida, konus, silindr istalgan jism yasashning asosini tashkil qiladigan geometrik shakllar hisoblanadi.

Har bir shaklning tuzilishini tahlil qilishda uning simmetrik yoki asimmetrik ekanligini aniqlash zarur. Masalan, terak, qayin, tog'terak, zarang daraxti barglarini

ko'chiramiz (5-rasm). Bargning tuzilishi xuddi daraxtning tuzilishiga o'xshaydi: barg cho'pi daraxt tanasini, tomirlarini, daraxt shakllari va shoxchalarini, butun yashil barg esa daraxtning tepa qismini eslatadi. Farqi shuki, daraxt tepasi hajmiy bo'lib, barg esa yassi va o'z tuzilishi




5-rasm. Oddiy geometrik jismlar.

jihatdan deyarli simmetrikdir. Barg cho'pi va uning davomi (asosiy tomiri) butun barg massasini fazodan yo'nalishini bildirgani va ayni vaqtda simmetriya o'qi vazifasini o'tagani uchun barg shaklini yasash shulardan boshlanadi.

Atrofimizdagi hamma jismlar o'zaro simmetrik va asimmetrik bo'ladi. Simmetrik figuralarning asosiy xossasi ularda simmetriya o'qi borligidir. *Simmetriya* — jism nuqtalari yoki qismlarining fazoda mutanosib joylanishi. Bunda jismning bir yarmi ikkinchi yarmining go'yo ko'zgudagi aksidek bo'ladi. Turli jismlar rasmini chizishda simmetriya o'qi muhim rol o'ynaydi. Masalan, kvadrat va ularni majmuidan, shuningdek, yarim aylannmalar chizish va diagonalardan foydalanish yo'li bilan har xil ajoyib naqshlar yaratish mumkin. *Naqsh* takrorlashuv elementlarining muayyan navbatlashuviga asoslangan bezakdir. U san'at asarlari yoki uy-ro'zg'or buyumlarida ishlatiladi.


Uncha murakkab bo'lmagan ishlarni bajarish, shtrix parallel chiziqlarni qo'llash hamda to'plash yo'li bilan oddiy simmetrik naqsh hosil qilish mumkin. To'g'ri to'rtburchaklik, oval yoki boshqa simmetrik figurada oddiy elementlarni har xil kombinatsiyada qo'llash orqali chiroyli naqshlar yaratish mumkin (6-rasm). To'liqsimon chiziqlar, zig-zag, krost, doira, spirallar va sinig chiziqlardan oddiy naqshlar hosil bo'ladi.




6-rasm.
Geometrik
jismlar.

Naqshlarning, asosan, uchta turi bor:


1. Biror simmetrik geometrik figura (uchburchakli, kvadrat, ko'p burchakli va h.k.) ichiga chizish mumkin bo'lgan naqshlar (7-rasm).
2. Polosa yoki ramka tarzida joylashadigan tasmasimon Doira ichiga chizilgan naqshlar *rozetkalar* deb ataladi.
3. Takrorlanuvchi rasmlar bilan birgalikda butun tekislikni to'ldiradigan to'rsimon naqshlar (9-rasm).



7-rasm. Simmetrik figura
ichiga chizilgan naqshlar.



8-rasm. Tasmasimon naqshlar.



9-rasm.
Takrorlanuvchi
naqshlar.

Turli burmalar tarzida taxlangan gazlamalarning chetlaridagi bukmalarini ifodalovchi naqshlarni chizish uchun naqsh polosasining yasalish tartibini tahlil qilib chiqish va raport chiziqlarini belgilab olish kerak. (Ular siniq chiziqlarni hamda o'ng va chap tomonlarga bukilgan ravon chiziqlarni hosil qiladi.) Pastki chiziqlardan tik vertikal chiziqlar o'tkazamiz (bular burmalarning oldingi qirralarini ifodalaydi). Biroz pastroqdan vertikal chiziqlarni pastki asos chiziqlar bilan kesamiz va uning sathida yuqori asos bo'laklarini shunday takrorlaymizki, ular vertikal qirralar chegarasida yoysimon chiziqlar tarzida ko'rinib tursin. Bularga qo'shimcha tarzda geometrik rasmlardan tashqari tuzilgan naqshlarni bajarish, shuningdek, o'simliklarga oid bezaklarni ishlatish juda yaxshi samara beradi.

Nazorat savollari

1. Yassi figuralarga qanday jismlar kiradi?
2. Oddiy geometrik shakllarni sanang.
3. Naqshlarning qanday turlari bor?

Adabiyotlar

1. Р. М. Буккина. Чизмачилик ва махсуус расмлар чизиши. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А. П. Рогова. Эркаслар ва болалар уст кийимини конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.
3. Х. Эгамов. Мактабда тасвирий санъат дарслари. — Т.: Ўқитувчи, 1986.

I.4. YORUG'LIK — SOYA YORDAMIDA JISMNING HAJMINI TASVIRLASH

Naqshli rasm tonalli rasm deyiladi. U, asosan, shtrixovka, dog'lar bilan bajariladi. Tonal rasmning asosiy vazifasi modelning yorug'lik nisbatlarini to'g'ri aks ettirishidir. Buning uchun jism hajmiy shaklining uning yoritilmaganlik darajasiga bog'liqligini bilish va bu hajmiy yorug'lik, soya, yarimsoya (varimton) refleks va shu'la vordamida aks ettira olish kerak.

Jismining yorug'lik manbayiga qaragan tomonlariga yorug'lik tushadi va eng yorug' hisoblanadi (rasmda *yorug'lik* deb ataladi), yorug'lik manbalarining teskari tomonlariga nur tushmaydi, shuning uchun soyada bo'ladi (bu *xususiy soya* deb ataladi). Yorug'lik manbayiga har xil burchak ostida turgan sirtlar yorug'likni to'la ko'tarmaydi. Bunday sirtlar *varimton* deb ataladi.

Soyalarda ko'pincha reflekslar, ya'ni soyani yoritadigan yorug'lik paydo bo'lgan tuslar kuzatiladi. Faraz qilaylik, oq jism yashil drapirovka yoniga qo'yilgan. Chap tomonidan yoritilgan, drapirovka esa uning o'ng tomonida. Bu holda drapirovkadan qaytgan yashil yorug'lik jismning o'ng tomonida turadi. Shunda drapirovkadan qaytgan yashil yorug'lik jismning o'ng, qorong'i tomoniga tushib, soyada refleks hosil qiladi. Agar jism oq emas, balki rangli, aytaylik, qizil bo'lsa, soyada yashil refleks bo'lmaydi. Chunki qizil jism yashil yorug'likni qaytarmaydi, balki yutadi. Bu sharoitda yashil jismdagi soya to'q vashilga aylangan bo'lardi.

Shu 'la — sirtning yorug'lik manbayini to'liq qaytaradigan kichik qisimi (asosan, egri sirtlarda kuzatiladi).




Yuqoridagilardan tashqari *tutashuvchi soya* ham mavjud. Bir jismdan ikkinchi jismga tushiriladigan soya *tutashuvchi soya* deyiladi. Tutashuvchi soyaning chegarasi soya hosil qiladigan jism va u tushadigan sirtning shakliga bog'liq bo'ladi. Tushuvchi soyaning eng qorong'i qismi jism qorong'i qismining asosida

bo'ladi (10^{-a} , b rasmlar). Yorug'lik kuchli, muhit va fazoviy

DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

17




MARKAZI



10-rasm. Yorug'lik manbai (S) holatiga qarab jismlarning yoritilganligi.

aytganda, yorug'lik jismlarning shaklini ochib beradi. Masalan, agar jismlarning shakli dumaloq yoki sharsimon (silindr, shar) bo'lsa, yorug'lik va soya bir-biriga o'tadi, shu bilan birga, eng soya joy soya tomonining refleks hosil bo'ladigan chetida emas, balki yoritilgan qismi yo'nalishi tomon biroz surilgan bo'ladi. Hajmiy jismlar rasmini chizishda yorug'lik manbaiyining figura orasida turishi, shuningdek, uning to'g'risidan yoritilishi mumkin emas (unda simmetrik joylashgan soyalar hosil bo'ladi), yorug'lik jismlar yuqoridan, biroz chaproqdan tushishi kerak. Shitrixlar va parallel chiziqlar yordamida aks ettirilgan modellarning yorug'lik nisbatlarini kub, silindr, shar va vazaning ayrim shakllari rasmini chizish misolida ko'rib chiqamiz.

Kubning shakli bir-biriga to'g'ri burchak ostida tutashadigan kvadrat yoqlaridan hosil bo'ladi. Rasm chizishga o'tamiz (11-rasm). Uy qurish poydevordan boshlangan kabi, istalgan jismini yasash ham asosdan boshlanadi, chunki bu uning shaklini aniqroq aks ettirishga yordam beradi. Kubning rasmini asosini aniqlashdan boshlaymiz. Avvalo, kub markasini belgilab olamiz, buning uchun uni shaffof deb faraz qilamiz. Gorizontal chiziqli kub asosining eng yaqin burchagiga mos nuqta qo'yib, shu nuqtadan



11-rasm. Kub rasmini chizish.


ichkari tomon asos chizamiz. Qalam bilan bir necha shtrix chizib, dam-badam qirra hamda gorizontal chiziqli orasidagi burchakni o'lchab, qirra o'tadigan joyini belgilaymiz. Uni topgandan so'ng xuddi o'sha nuqtadan, o'sha usulda ikkinchi qirrani topamiz, tomonlarning o'lchamlarini belgilab, asosning boshqa qirralarini chizamiz. Shu tariqa kubning umumiy shakli aniqlanadi. Bu esa rasm chizishga imkon beradi. Kub chap tomondan yoritiladi, shuning uchun yoqlarning bir qismi soyada bo'ladi. Kubning eng qorong'i va eng yorug' tomonlarida, o'z navbatida, yorug'roq va qorong'iroq (yorug'lik manbaiyidan uzoq) joylar bo'ladi. Kubning yoritilishini tahlil qilib, uning yoni qorong'i tomon bilan birikib (kesishib) yoritilishi va aksincha bo'lishini ko'rish mumkin. Bu hol rasmda aniq aks ettiriladi.

Kubning faqat umumiy shakli, umumiy yoritilishini belgilab, detallar ishlashga o'tiladi. Buning uchun rasmini modelga taqqoslab, aslida yorug' yoki yorug'lik nurlari to'g'ri tushmaydigan yog'ini belgilab olamiz. Kubning rasmini chizish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchisi — rasm chizish; ikkinchisi — yorug'lik — soya tushirish.

Kubdan keyingi murakkabroq shaklli jismlar silindrdir. Tasvimi odatdagi usul bilan boshlash uchun silindrni xayolan cheksiz kichik tomonli — ko'pyoqlik deb faraz qilamiz. Silindrni oldimizga qo'yib, uning pastki asosini ko'pyoqlik kabi chizma boshlaymiz. Asta-sekin to'liq aylanaga aylantiramiz. Aylana chizilgandan so'ng asos markazidan perpendikular — silindrning markaziy o'qini o'tkazamiz hamda silindr tomonlaridan birining rasmini chizamiz. Topilgan elementlari bo'yicha boshqa yoqlar belgilab olinadi. Endi silindr shakliga yorug'lik soya tushirishi lozim, rasm chizish jarayonida yorug'lik nurlari to'g'ri tushmaydigan qismlarni shitrixlab, eng yorug' joy silindr chetidan ichkariroqda bo'lishini, silindr chetida esa ayrim ton aniq aks ettirishini ko'ramiz. Silindrning qorong'i tomoni orqasida yotgan

fon qismi yoritilgan tomon orqasida yotgan qismiga qaraganda yorug'roq tuyuladi. Bu hodisa tasodifiy emas, u yorug'lik kontrasti (farqi) deb ataladi. Jismning yoritilgan qismi yaqinidagi fonni biroz qoraytirib va uning soya qismini oqartirib, rasmdagi hajmiylikni yana ham to'liqroq aks ettirish mumkin (12-rasm).



12-rasm. Silindr rasmni chizish.

Shar quyidagi tartibda chiziladi (13-rasm). Shar turgan joyini, ya'ni stol sirtiga tegib turadigan nuqtani belgilab olamiz. Diametrlar uzunligini belgilab, sharning tashqi chegaralarini chizamiz va ularni shtrixlay boshlaymiz, ya'ni ton beramiz. Sharning yorug'lik nurlari to'g'ri tushmaydigan tomonini shtrixlab, eng qorong'i joyini belgilaymiz, ya'ni yorug' qismida qorong'i hamda yorug' joylarni belgilaymiz, so'ngra shar shaklini kontrast yoritishga o'tamiz. Sharni kontrast yoritish bilan bir vaqtda, shar shakli aniqlasha borgan sari hajmi ham oydinlashtirilib boriladi.



13-rasm. Shar rasmni chizish.

Nazorat savollari

1. Qachon jism yorug'lik oqimini to'la qaytarmaydi?
2. Shu'laga ta'rif bering.
3. Tutashuvchi soya deb nimaga aytiladi?
4. Kub rasmi nechta bosqichda chiziladi?

Adabiyotlar

1. Р.М. Буккина. Чизмачилик ва махсуус расмлар чизилиши. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. Р. Хасанов. Мактаб таъсирли санъат маърузаларини таъминлаш учун йўналиш. — Т.: Ўқитувчи, 1986.
3. Х. Эгамов. Мактабда таъсирли санъат дарслари. — Т.: Ўқитувчи, 1986.

I.5. NATURMORT CHIZISH

Tasviriy san'at turlariga rang-tasvir, haykaltaroshlik va grafika kiradi. Bu turlarning o'zaro umumiy va farq qiluvchi tomonlari mavjud bo'lib, ular qo'llaniladigan badiiy materiallar hamda ishlash texnikasi va boshqa xususiyatlari jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Rang-tasvir — tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Rang-tasvir asarlarida qiziqarli voqea va narsalarning rasmlarini ko'ramiz, kishilar hayoti, turmushi, kiyinishlari, ichki kechinmalari bilan tanishamiz. Rang-tasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, miniatura, dastgohli turlarga bo'linadi.

Naturmort dastlab mustaqil janr sifatida XVII asrda Gollandiya va Fransiya (hozirgi Belgiyaning bir qismida) yuzaga kelgan va keng tarqalgan edi. Naturmort fransuzcha so'z bo'lib, «o'lik tabiat» yoki «jonsiz tabiat» ma'nosini anglatadi. Bu janrda ishlangan tasviriy san'at asarlarida, asosan, insonni o'rab turgan atrof-muhitdagi narsalar, maishiy turmushda qo'llaniladigan jismlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va shu kabilar tasvirlanadi. Rassom o'z asarlarida tevarak-atrofdagi jismlarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqeani qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsata olishi mumkin.


Naturmortni oldin chizib ko'rilgan va yaxshi o'rganilgan jismlardan tuzgan ma'qul. Bir necha jismni birgalikda tasvirlash ancha qiyin. Buning uchun bizga ma'lum bo'lgan kub va silindrni olish va ularni shunday joylashtirish kerakki, ular muvozanatlashgandek ko'rinsin hamda o'zini almashtirishga hojat qolmasin. Shundan so'ng rasm chizishga kirishiladi (14-rasm).

Rasmda jismlar shaklini birgalikda belgilash lozim. Bu ishni xomaki rasm yordamida bajarish kerak. Bunday rasmda shakl balandligi eniga nisbatan aniqlanadi. Xomaki rasmining kichik shaklini boshqa qog'ozga chizgan ma'qul, chunki undagi kompozitsiyaning eng qulay varianti, ya'ni jismlarning bir-biriga

va umumiy masalalar aniqlangach, darhol ayrim narsalarning rang toni bo'yicha farqini belgilab olish kerak.

Bu shuning uchun zarurki, birinchidan, rasmi asliga taq-qoslash mumkin bo'lsin, ikkinchidan, optik qonunning talabi hisobga olinishi lozim. Bu qonunga ko'ra, oq va umuman ochiq hajmlar o'lcham jihatdan xuddi shu o'lchamdagi to'q yoki qora hajmdan kattaroqdek tuyuladi. Shakllarni tonsiz yasash pro-porsionalarning noto'g'ri aks ettirilishiga olib kelishi mumkin.

Naturmort chizib bo'lingach, yorug'lik — soya joylarni bo'ttirishga o'tiladi, ya'ni shaklga tus beriladi. Bunda dambadam o'lchamlar aniqlanadi, ayrim qismlarning bir-biriga nisbatan joylashishi tekshirilib, taqqoslab boriladi (15-rasm).



14-rasm. Kub va silindr rasmini chizish.





nisbatan vaziyati tanlab olinadi. So'ngra yordamchi chiziqlar orqali ularning umumiy o'Ichamlarini belgilab olib, jismlar orasidagi bog'lanishni topamiz. Shakl yaxlit belgilab olingach, ayrim jismlarni yasashga kirishish mumkin. Bundan avval asoslar belgilab olinadi. Ular to'g'ri fazoviy vaziyatni egallashi lozim: so'ngra silindr yoqlari, asoslari va shakllarning yuqori qismlari aniqlanadi. Keyin kub va silindrning shakli aks ettiriladi. Asosiy sovalar belgilanadi va bu bilan kub voqlarining holati trekshirladi.

Jismlarning soya tomonlari bilinar-bilinmas shtrixlar bilan bo'rtiriladi. To'liq o'xshashlikka erishish uchun kub yoqlarning o'lchamlarini, ayrim qismlarning bir-biriga nisbatini yana bir bor belgilash, yorug'likni aniqroq aks ettirish lozim. Bu natijamort istida ishlashning ikkinchi bosqichi bo'ladi.

Rasmi solinadigan material sifatida geometrik jism va drapirovka bo'lagini olish mumkin. Drapirovka materialining bir uchi devorga mahkamlab qo'yiladi, ikkinchi uchi stolga tegib turadi. Bu xildagi naturmortlarning dastlabki rasmlarini oxirigacha chizib tugatish shart emas. Shaklni yasash, yoritilgan va qorong'i qismlarni bilinar-bilinmas chiziqlar bilan belgilash, fakturalar tafovutini ko'rsatish kifoya. Shundan keyingina murakkabroq naturmortlarni chizishga o'tish mumkin.

Shakl xususiyatlarining qanday aniqlashni bilish uchun oldin jism tasvirlash usulini o'zlashtirib olish, ishini to'g'ri va izchil bajarishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Murakkablashtirilgan naturmortlar rasmini chizishda asosiy ish jarayoni biroz o'zgaradi. Masalan, rasmi solinadigan jismlar orasida oq jismlar bilan birga boshqacha tUSDagi va boshqa materialdan bo'lgan jismlar ham borligi uchun kompozitsiya



15-rasm. Drapirovkali oddiy naturmort.

Nazorat savollari

1. *Naturnorm dastlab qayerda yuzaga kelgan?*
2. *Naturnormning lug'aviy ma'nosini tushuntiring.*
3. *Naturnorm qanday chiziqladi?*
4. *Draniprovkali naturnorm aqanday bo'ladi?*

Adabiyotlar

1. Н. Норматов. Камалак яшайдиган уй. — Т.: «Ўқитувчи», 1983.
2. Р.М. Букина. Чизмаччилик ва маҳсуе расмлар чизши. — Т.: Ўқитувчи, 1978.

II. MATO TO'SHALGAN HOLDA HOSIL BO'LADIGAN TAXLAMA VA SOYALAR

II.1. DRAPIROVKALAR, TAXLAMALAR VA SOYALAR. DRAPIROVKA VA TAXLAMALAR RASMINI CHIZISH


Kiyim shakli bilan gazlama orasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Masalan, XVI—XVII asrlarda juda qalin va og'ir gazlamalar — movut, duxoba, kashmir, baxmal, parcha va h.k. to'qilar edi. Ular o'sha zamonlarning murakkab, qo'pol kiyimlariga mos tushadi. Hozir esa kiyimning xarakteri o'zgardi, og'ir, qo'pol shakllar o'rniga, fakturaviy xossalarga ega bo'lgan yengil gazlamalar rasm bo'ldi.

Erkin tushib turmagan gazlama bo'lagini ko'zdan kechirib, uning sirtida xuddi to'lqinlarga o'xshab bir-birining ustiga chiqib ketgan botiqlik va qavariqliklar hosil bo'lishini ko'rish mumkin. Har xil gazlamalar (jun, ip gazlama, baxmal, parcha va h.k.) hosil qiladigan burmalar bir-biridan ancha farq qiladi. Ular yirik, mayda, ravon va siniq bo'ladi. Agar burmalar osilib tursa, uning burmalari konusli va silindr shakllarni hosil qiladi. Kiyim odam gavdasiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun burmalar odamning gavda tuzilishini hisobga olgan holda hosil qilinadi.

Burmalar to'g'ri tasvirlash uchun ularni sinchiklab o'rganish lozim, aks holda rasm hech narsaga o'xshamaydigan va hech narsani ifodalamaydigan kiyim qiyofasida, pala-partish yotgan shtrixlardan iborat bo'lib qoladi (16-rasm).

Gazlamani asliga qarab chizishdan oldin bir necha bo'lagini olib, stolga qo'yish, devorga yoki stul suyanchig'iga osib qo'yish, manikenga yopishtirish kerak. Shunda har qaysi bo'lak turlicha draplanadi. Hosil bo'lgan draplarni bir-biriga taqqoslab, burmalar orasidagi farqni ko'rish va ularning shaklini tahlil qilish mumkin. Rasmda gazlamalarning bukmalarini aks ettirish lozim, buning uchun avval botiq va qavariq joylarni chiziq bilan belgilab olish kerak. Bu chiziq ravon bo'lishi, o'ng va chap tomonlarida bukiqlar hosil qilishi dardkor.


Burmalar rasmning asliga taqqoslab, barcha ahamiyatli va xarakterli elementlarni belgilab qo'yish kerak. Soya, yarimsoya va yorug'likni esa shtrixlab qo'yish lozim. Natijada burmalarning hajmiylik taassuroti kuchayadi.



16-rasm. a — yirik va mayda burmalar; b — bir tomonlama taxlama;
d — bir-biriga qaragan taxlama, bir-biriga teskari bo'lgan taxlama;
e — murakkab taxlama.

Burmalar tasviri murakkablashtiriladi: parallel bo'lmagan kapalaknuxa burma va boshqa burmalar rasmini xayolan chizish lozim. Murakkabroq burmalarni rejalash va yasash tartibi ham xuddi oddiy burmalarnikiga o'xshash bo'ladi.

Drapirovkalar rasmini chizish kiyim modelidagi qonuniyatni his qilish va tushunishga o'rgatadi hamda drapirovkaning o'zi



17-rasm. a — drapirovka;
b — bantlar; d —
belbog'lar, sabo va volan.

fasonda ko'zda tutilgan kiyimlarning rasmini chizishga olib keladi. Drapirovkaning asliga qarab chizishda avval gazlama bo'laginging asosiy proporsiyasini aniqlab olish, so'ngra ingichka chiziqlar bilan yirik burmalarni belgilash kerak. Shundan so'ng mayda va ikkinchi darajali burmalar belgilanadi va shtrixlab chiqish orqali burma relyefi bo'rttiriladi.

Masalan: hozirgi kiyimlardagi drapirovka va bantlar rasmini chizish. Hozirgi paytda burmalar erkin tushib turadigan kiyimlar (plash, pelerina, yubka, shuningdek, ayrim detallardagi etagi kengaygan polotnolardan fallar, basklar, rumalar, yig'malar, valanlar, jabo)da uchraydi.

Nazorat savollari

1. Oddiy va murakkab burmalar rasmda qanday tasvirlanadi?
2. Gazlama burmalarining shakli qanday bo'ladi?
3. Hozirgi kiyimlardagi drapirovka va bantlar rasmini chizish.

Adabiyotlar

1. P. M. Буккина. Чизмачилик ва махсус расмлар чизили. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. Н. Норматов. Камалак яшайдиган уй. — Т.: «Ўқитувчи», 1983.

II.2. UY ANJOMLARI VA JISMLARINI SOYA ASOSIDA CHIZISH

Naturmort «Naturmort chizish» mavzusida aytib o'tilganidek, tasviriy san'atning mustaqil janri sifatida yuzaga kelgan va tarqalgan.

Naturmortlarni rang-tasvir va grafika orqali ifodalash mumkin. Rang-tasvir tasviriy san'atning eng muhim turi hisoblanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'rinni egallaydi. Rang tasvirida bo'yoqlarning har xil turlaridan va ularning och, to'q rangidagi tuslaridan foydalanib, naturmort haqqoniy, hayotiy qilib tasvirlanadi. Naturmort janri orqali, asosan, insonni o'rab turgan atrof-muhitdagi narsalar, uy-ro'zg'or anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlari, cholg'u asboblari, o'quv qurollari, gullar, meva-sabzavotlar, pishiriqlar va shu kabilar tasvirlanishi mumkin.

Tasvirlanishi lozim bo'lgan obyektning, ya'ni uy-ro'zg'or buyumlari: chelak, cho'mich, kapgir, piyola, vilka, lagan, obdasta, g'alvir, elak va hokazolarning asosiy xarakterini aniqlash uchun bir necha amaliy masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Birinchidan, tasvirlanadigan jismini barcha detallari uchun xarakterli bo'lgan oddiy shaklga keltirish lozim, chunki jism rasmini qismlarga bo'lib chizish har xillik va tarqoqlikka olib keladi, bu esa surat sifatini ancha pasaytiradi va uni idrok etishni qiyinlashtiradi. Rasmning ayrim qismlarini boshdan bir butun qilib tasvirlashga intilish odati shu tariqa shakllanadi.


Jism (natura) qo'yilgan va asosiy qiyofasi belgilab olingandan so'ng chiziladigan obyektning tarkibiy qismlarini ham joylashtirish kerak. Kompozitsiya izlashni soddalashtirish, ya'ni jismlarni qog'ozga joylashtirishni osonlashtirish uchun rasmning xomaki eskizini chizib olish mumkin. Shu vaqtdan boshlab, yoritilgan sirtlar uchun qog'ozda joy qoldirgan va soyada qolgan sirtlarni bir xil qilib tushlangan holda yorug'lik — soya usuli qo'llanadi. Bu modelning proporsiyasini aniqlashga imkon beradi. Rasm detallarini aniqlash davomida asta-sekin refleks-

larni (soyada), yarimton va shu'lalarni (yorug'likda) kiritish, ayni vaqtda ularning ton nisbatlariga rioya qilish lozim. Ularning butun shakli bilan uyg'unligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Rasm chizish jarayonida uni har doim asliga taqqoslab turish tavsiya qilinadi. Shunday qilib, jismning murakkabroq detallarini mukammal o'rganish yo'li bilan uning umumlashgan qismlarini shunchaki aniqlashdan boshlab rasm ustida ishlash rivojlanib boradi. Bu rasm chizishning asosiy prinsipi bo'lib, undan faqat ayrim rasmlarni chizishdagina foydalanilmaydi, balki u badiiy ta'lim sistemasini tashkil qilishning asosi hisoblanadi.

Uy-ro'zg'or anjomlaridan choynak va piyola naturmortini chizishga kirishamiz. Chiziladigan naturmort oldindan yaxshilab o'rganib chiqiladi. Chizish naturaning umumiy balandligi va enini belgilab olishdan boshlanadi. Bu naturani to'g'ri joylashtirish imkonini beradi. Bizga avvalgi darslarimizdan ma'lumki, *kompanovka* biz tanlagan natura (jism)ni, ya'ni choynak va piyolani qog'ozga to'g'ri, chiroyli joylashtirishdir.

Har bir jismning joylashish o'rni aniq belgilanib, tashqi zirh chizig'i ishlab olinadi. Ishlangan tasvir natura bilan solishtirib ko'riladi, so'ng ortiqcha chiziqlari o'chirib tashlanadi.

Navbatdagi ish tasvir ishlangan qog'oz sirtini mo'yalam bilan toza suvda ho'llab chiqishdan iborat bo'ladi. Qog'oz yuzasi qurigach, qalam tasvirni bo'yashga o'tish mumkin.



18-rasm. Choynak va piyola rasmini chizish.

Odanning ko'rib idrok qilish xususiyati rasmning muhim prinsiplaridan biri — jismni umumiy tasvirlash prinsipini belgilaydi. Ushbu topshiriqda ham xuddi shunday: silindr shaklidagi bidonchaning faqat umumiy shakli, umumiy yoritilishini belgilab, detallarni ishlashga o'tish mumkin.

Bidoncha chizish tartibi silindrni chizish kabi bajariladi.


Silindrni soya yordamida tasvirlash 4-mavzuda bayon etilgan.

Bidonchaning shakli o'rtasida yaqinroqda yorug'lik yana yarimtonga, so'ngra soyaga o'tadi. Ana shu joy bidonchaning eng qorong'i qismi hisoblanadi. Soyadan keyin yana yarimton keladi, lekin u o'rtasiga qaraganda to'qroq bo'ladi. Bidonchaning bu qismiga devordan yoki stoldan yorug'lik tushgani uchun (refleks) bu yarimton yorug'lik (ochroq) yoki, aksincha, qorong'iroq (to'qroq) bo'ladi.


Naturmortni drapirovka bilan chizish

Rasm solinadigan natura sifatida chelak, supurgi va gazlama bo'lagini olish mumkin. Gazlamaning bir uchi devorga mahkamlab qo'yiladi, ikkinchi uchi polga tegib turadi. Shaklni yasashda yoritilgan va qorong'i qismlarini bilinar-bilinmas chiziqli bilan belgilash, fakturalar tafvutini ko'rsatishning o'zi kifoya qiladi. Shakl xususiyatlarini qanday aniqlashni bilish uchun oldin jismni tasvirlash metodini o'zlashtirib olish lozim.

Naturmortni ishlashda ayrim narsalarning rang toni bo'yicha farqi belgilab olinadi. Bu shuning uchun zarurki, birinchidan, rasmni asliga taqqoslash mumkin bo'lsin, ikkinchidan, optik qonunning talabi hisobga olinishi lozim. Bu qonunga ko'ra, oq va, umuman, ochiq hajmlar o'lcham jihatdan xuddi shu o'lchamdagi to'q yoki qora hajmlardan kattaroqdek tuyuladi. Shakllarni tonsiz yasash proporsiyalarni noto'g'ri aks ettirishga




19-rasm.
Bidoncha,
chelak va
supurgi
rasmini
chizish.



olib keladi. Naturmort chizilib bo'lingach, yorug'lik — soya joylarini bo'rttirishga o'tiladi. Bu haqda avvalgi sahifalarda aytib o'tildi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, chelakka yorug'lik chap tomondan tushib turibdi.



20-rasm. Oshxona anjomlari naturmorti.

Nazorat savollari

1. Naturmort janri orqali nimalar tasvirlanadi? Nima uchun rasmning xomaki eskizi chiziladi?
2. Naturmortni kompanovka qilishdan maqsad nima?
3. Rasmda naturaning yorug'lik — soya joylari qanday tasvirlanadi?

Adabiyotlar

1. P.M. Букан. Чизмачилик ва махсуе расмлар чизуш. — Т.: Уқумуви, 1978.
2. X. Эвмон. Мактабда маасурий санъат дарслари. — Т.: Уқумуви, 1986.

III. KISHI TANA TUZILISHIDAGI NISBIYLIK

III.1. BOLALAR TANA TUZILISHIDAGI NISBIYLIK

Odam gavdasi o'lchamlaridagi qonuniyatni topishga intilish juda qadimda Misrda paydo bo'lgan edi. Bu intilish qadimgi yunon san'ati gullab-yashnagan davrda kuchaydi va uyg'onish davrida yuksak darajaga yetdi.

O'sha davr rassom va haykaltaroshlari odam gavdasi turli qismlarining absolut o'lchamlarinigina emas, balki nisbiy o'lchamlarini, ya'ni mutanosibligini bilishi lozim edi.

Inson tanasi nafaqat simmetrik, balki proporsional mutanosiblikka ham ega. Buyuk musavvirlar Leonardo Da Vinchi, Albrect Dyurer ko'p yillik ijodiy faoliyatlarini inson tanasi mutanosibligini o'rganishga bag'ishlagan.


deyilishiga sabab, dunyodagi barcha tirik mavjudotlar asosida aynan shu ratsamning yotishidir.

(«Fi»ni «Pi» bilan almashtirmaslik kerak).

Dyurer gavda va oyoq uzunligiga ma'lum darajada mos keladigan yagona o'lchamni izlash bilan shug'ullangan (u qo'ling tirsakkacha bo'lgan uzunligini ana shunday o'lcham deb hisoblagan).

Zamonaviy rang-tasvir maktablarida ko'pincha yagona o'lcham sifatida boshning uzunligi olinadi. Ma'lumki, gavda uzunligi boshdan taxminan sakkiz barobar ortiq bo'lishi haqidagi fikr juda mashhur.

Bosh hajmiga nafaqat gavda, balki, boshqa tana a'zolarining hajmi ham mutanosibdir. Barchamiz mana shu asosdagi tana ko'rinishiga ega bo'lib, bir-birimizga o'xshashmiz, biroq bir xil emasmiz. Shundan kelib chiqqan holda, inson boshi o'ziga xos mutanosiblikka ega ekanligini qadimgi Xitoy fiziognomistlari ham ta'kidlaganlar. Ya'ni, yuzda joylashgan har bir a'zo ma'lum o'lchamlarga asoslanadi. Misol uchun, peshona balandligi burun uzunligiga va burun uchidan iyakkacha bo'lgan masofaga teng. Bundan tashqari, peshona balandligi ko'z enining shakl barobarini tashkil etadi. Ko'zlar oralig'i bitta ko'z eniga teng keladi. Xuddi shuningdek, quyi lab va iyak oralig'i quyi labdan



20-rasm. Albrext Dyurer
ma'lumotlariga ko'ra, inson boshi
tanasiining sakkizdan bir qismini
tashkil etadi.

uchun bunday kanonlar juda ko'plab yaratildi va o'zgarib turdi. O'lchov birligi sifatida gavdaning biror qismi uzunligi (modul) qabul qilindi. Modul sifatida qo'l o'rta barmog'ining uzunligi, tovon uzunligi, kalla o'lchamlari ishlatilgan. Misliklar o'lchov birligi sifatida qo'lning o'rta barmog'i uzunligini olganlar (butun gavda balandligi bu uzunlikdan 19 marta katta qilib olingan.)

Qadimgi Yunoniston va Rim haykaltaroshlari o'lchov birligi qilib kallaning o'lchamini olganlar. Ular jonli odam gavdasini sinchiklab kuzatganliklari uchun haqiqatga ancha yaqinlashganlar. Venera Miloskaya va Appolon Belvederskiyning haykallari hozirgacha san'at namunasi sifatida xizmat qiladi. Chunki ularda rassomning qobiliyati va odam gavdasi tuzilishidagi qonuniyatlarni, uning tipik mutanosibligini tushuna bilish mujassamlashgan. Rassomlar kanonlari tom ma'nosi bilan anatomiya faniga taalluqli emas, lekin modelyer odam gavdasi tuzilishining insoniyat asrlar mobaynida ishlab chiqqan estetik normalarini bilishi shart. Bu norma — maxsus rasm chizish kursiga asos qilib olingan. Kiyim eskizlarini ishlab chiqishda odam gavdasi tuzilishiga oid kanondan foydalanish qulay va oson. Unda kallaning tepa suyakdan to iyakkacha bo'lgan

burungacha bo'lgan masofaga tengdir.

Xol, soch gajagi yoki biror boshqa belgi tashqi ko'rinish simmetriyasini buzadi. Chap ko'z hech qachon o'ng ko'zga aynan o'xshamaydi, og'iz chetlari turli balandlikda joylashadi.

Inson tanasi simmetriyasi va mutanosibligi zoxiriy bo'lib, simmetriya va mutanosiblik buzilishi har bir shaxsning o'ziga xosligini tashkil etadi.

Turli davrlarda odam gavdasi o'lcham va mutanosiblikni tipik-

lashtirish sistemalari — *kanonlar* mavjud bo'lgan. Har xil davrlarda xalqlar odam gavdasi go'zalligini va uning mutanosibligini o'zla-

richa tushunganlar, shuning o'lcham va mutanosiblikni tipik-

lashtirish sistemalari — *kanonlar* mavjud bo'lgan. Har xil davrlarda xalqlar odam gavdasi go'zalligini va uning mutanosibligini o'zla-


richa tushunganlar, shuning o'lcham va mutanosiblikni tipik-

lashtirish sistemalari — *kanonlar* mavjud bo'lgan. Har xil davrlarda xalqlar odam gavdasi go'zalligini va uning mutanosibligini o'zla-

richa tushunganlar, shuning o'lcham va mutanosiblikni tipik-

balandligi o'lchov birligi hisoblanadi. Bu balandlik butun gavdaga 8 marta joylashadi. Odam gavdasi mutanosibligiga oid bu ma'lumotlarning barchasi taxminiy tasavvur va taqqoslash uchun berildi. Bu materiallardan odam gavdasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Bolaning yoshi kattalashgan sari gavdasi cho'zilib, ozib boradi. (21-a, b, d rasm.)



21-rasm. Bolalar gavdasining qiyofasi.

Bo'yin va yuzi sezilarli darajada cho'ziladi, qo'l-o'yoqlari uzayadi, tanasining shakli (uzunligi o'zgarmagan holda) o'zgaradi; beli ilgarigidek tekis, qorni qappayganicha qoladi.

To'rt yoshlik bolaning gavdasi olti yoshlik bola gavdasidan biroz farq qiladi. Yetti yoshlik bola, ayniqsa, o'g'il bolaning gavdasi o'yoqlari uzayganligi tufayli ko'rkamlashadi, qornining qappayganligi deyarli yo'qoladi, beli bilina boshlaydi.

Qiz bolaning yoshi ulg'aygan sari (12—13 yoshdan boshlab) son va boldirlari yo'g'onlashadi, ko'kraklari dumaloqlashadi, beli xipchalashadi. O'g'il bolalarda 12—14 yoshdan boshlab yelkalar kengayadi, tos suyagi torayadi. Shuning uchun beli aniq biliniib turadi. O'yoq-qo'llari, ayniqsa, o'yoqlari uzayadi.

14—16 yoshlik o'smirlarning gavdasi mutanosiblik jihatdan katta yoshlik kishi gavdasiga yaqinlashadi.

Lekin ularning gavdasi biroz nomutanosib ko'rinadi. Ularning yuzi va gavdasida qirradorlik seziladi, tanasi kalta, qo'l va

Oyoqlarning shakli yonbosh o'qi bilan boldir o'qining bir
biriga nisbatan qanday joylashganligiga qarab normal, X -simon,
 O -simon, ya'ni xomutsimon va sirkulsimon bo'lishi mumkin.

Tananing bo'yin asosidan to yelka bo'g'imigacha bukilgan qismi *yelka* deb ataladi. Yelka normal, keng va tor, shuningdek, qivalik darajasiga qarab, baland hamda past bo'lishi mumkin.

Qorinning ham uchta asosiy shakli mavjud: tekis, ichiga tortilgan va dumaloq-do'ppayib chiqib turgan qorin. Qorinning shakli jinsga va oriql-semizlikka bog'liq bo'ladi. Gavdani belgilab beruvchi asosiy morfologik belgilar umumiy belgilarni, mutanosiblikni, gavda tuzilishi va qaddi-qomatni o'z ichiga oladi.

Umumiy belgilar deganda tananing uzunligi, ko'krak aylanasi va vazn kabi belgilar tushuniladi. Har bir odamning ko'krak qafasi shakli har xil bo'ladi. U qisqa va keng, uzun hamda ensiz bo'lishi mumkin. Gavda harakatlanganda (burilganda, engashganda) ko'krak qafasining shakli ham o'zgaradi. Ayollar ko'krak qafasi erkaklamikidan ensiz va kalta bo'ladi. Tos kamari butun gavgdani tutib turadi. Ayollar tos suvagi erkaklarnikidan pastroq va kengroq bo'ladi, ko'proq oldinga og'ib turadi. Tos suyaklari dumg'aza suvagi bilan birga yopiq suyak halqasini tashkil etadi. Ensiz tos suvagi qomatni xushbichim ko'rsatadi, keng tos suvagi esa uni qo'pollashtiradi. Gavda tik turganda son suvagingin pastki tomoni uski tomoniga qaraganda bir-biriga yaqinroq turadi. Bu, ayniqsa, ayollarda yaqqol seziladi. Son suvagi ayollarda to'g'ri burchak ostida bo'ladi.

Kiyimni konstruksiyalashda proporsionaning ahamiyati katta. *Proporsiya* deganda, tananing turli qismlari o'Ichamining bo'yi (rost)ga nisbati tushuniladi; bu nisbat foizlar bilan ifodalanadi. Tana proporsionalari yosh va jinsga qarab o'zgaradi.

Ayollarning yelkasi ensizroq, sonlari yo'g'onroq, tanasi uzunroq, qo'l-oyoqlari erkaklarnikidan kaltarroq bo'ladi. Qiz bolalarning yoshi ulg'aygan sari son va boldirlari yo'g'onlashadi, ko'kraklari dumaloqlashib, bellari xipchalashadi.

14—16 yoshlik o'smiring gavdasi mutanosiblik jihatdan katta yoshdagi kishi gavdasiga yaqinlashadi, lekin ularning gavdasi biroz nomutanosib ko'rinadi. Ularning tanasi kalta, qo'l va oyoqlari hamda bo'yni uzun bo'ladi, lekin gavda bichimi to'g'ri, gavdasi katta yoshdagi kishilar gavdasiga qaraganda xushbichimroq va yengilroq tuyuladi. Yosh kattalashgan sari gavda qismlarining parcha o'lchamlari o'zgaradi. Butun o'sish

divrida kalla ikki marta, qo'llar to'rt marta, bo'yin yetti marta
taltalashadi.

talashadi. Gʻayda yoki uning qismlari asimmetriyasini hatto qomati keli shgan kishilar ham kuzatish mumkin. Asimetriya gʻaydaning oʻng va chap tomonlari tuzilishidagi ayrim farqlarda namoyon boʻladi. Oʻqqo qaraganda uzunroq, chap oyoq oʻng oʻ qaraganda balandroq boʻlishi mumkin. Yelka ikkinchisigʻlarda koʻproq kuzatiladi.

Kishi gavdasiga u old yoki orqadan qaraganda ko'rinadigan simmetrik bo'ladi. Yon tomondan qaraganda ko'rinadigan qiyofadan farq qilgavariqligi va botiqligi ayqash yotganligini qiyofa konturining qutunlay normal tuzilgan gavdali kishilarni ko'rish mumkin. Mutasaddali kishilarni uchratish mumkin. Kiyimdan biroz ortiq g'ay olish gavda tuzilishini aniqlashga, uning joyihalashda o'lchog'maganligini bilishga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Odam gavvasidagi kakklar gavvasidan farqli tomonlarini aytib.
2. Ayollar gavvasini ulg'aygan sari gavvasida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
3. Qiz bolaning yoshi priyalarni sanab bering.
4. Gavdadagi asimni jenganda nimani tushunish kerak?
5. Mutanosib gavda

Adabiyotlar

1. Р. М. Букина. *Чиряклар ва махсуус расмлар чизмиш*. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А. П. Розова. *Эркаклар ва болалар устки кийимини конструкциялаш*. — Т.: «Ўқитувчи», 1979.
3. Г. С. Горичина. «Моделирование формы одежды». Москва. Лёгкая и пищевая промышленность, 1982.

III.3. ERKAKLAR TANA TUZILISHIDAGI NISBIYLIK

Gavdaning tashqi qiyofasi tuzilishida muskullarning ahamiyati katta, muskullarning zo'riqlishi va kuch darajasi qo'matdagi tafovutni hamda muskul relyefining ifodaliligini belgilaydi. Odam gavdasidagi muskullarning umumiy soni 300 dan ortadi. Turli-tuman alomatlariga qarab har qaysi muskul alohida-alohida nom berilgan: vazifasiga qarab — bukuvchi, yozuvchi, yaqinlashtiruvchi, uzoqlantiruvchi; shakliga qarab — deltasimon, trapetsiyasimon; joylashishiga qarab — o'mrov osti, suyak usti; boshlanishi va yopilishi joyiga qarab — yelka, bilak o'mrov-yelka; kallaklari soniga qarab — ikki kallakli, to'rt kallakli; tuzilishiga qarab — yarimpay muskullar.

Ko'krak muskullari. Gavdaning oldi tomondagi eng muhim muskul — katta ko'krak muskuli. Ayollarda bu muskullar ustida ko'krak bezlari yotadi. Qovurg'alar orasidagi katta muskullar qovurg'alar orasidagi oraligni to'ldirib turadi va ularning nafas olishdagi harakatini amalga oshiradi.

Qorin muskullari. Qorindagi to'g'ri muskul vertikal yo'nalishida yotadi. U gavdani bukadi, ko'krak qafasini pasaytiradi, nafas chiqarishda qatnashadi.

Orqa muskullar. Bunday muskullar guruhida trapetsiyasimon muskul ayniqsa muhim. U bosh suyagining orqa tomonidan boshlanadi.


Yelka kamari muskullari yelka bo'g'imining atrofidagi deltasimon muskul gavda plastinkasida katta ahamiyatga ega, u yelkani yumaloq qilib turadi. Oldi tomondan yo'g'on ko'krak muskuli bilan chegaralanadi. Bu muskullar qo'lni yonga cho'zishga yordam beradi. Qo'lning oldi tomonida ikki kallakli muskul yotadi, u qo'lni tirsak bo'g'inida bukadi, bilakni tashqariga buradi va yelka muskuli bilan birgalikda bilakni egishda qatnashadi. Bilak muskullari guruhi qo'l barmog'i va panjalarini bukuvchi hamda yozuvchi vazifasini o'taydi. Qo'l panjalari muskullari kaft sirtida yotib, ikki joyda — bosh barmoq va jimjilloq tagida bo'rtiq hosil qiladi.

Tos kamari muskullari. Plastinka nuqtayi nazaridan yo'g'on va o'rta dumba muskullari tos kamaridagi eng muhim muskul hisoblanadi. Tik holatda muskul qisqarganda oyoq to'son bo'g'imida keriladi va yoziladi hamda tana old tomon to'g'rilanadi. O'rta dumba muskuli qisqarganda oyoq yonga keriladi.

Boldir muskullari. Bilak muskullari kabi boldir muskullari ham tovonga tomon torayib boradigan uzun paylarga ega. *Tovon muskullari* orqa va oyoq kafti guruhlariga bo'linadi. Orqa guruh muskullari oyoq barmoqlarini to'g'rilaydi. Ular barmoqlarni to'g'rilaydigan kalta muskullardir, oyoq kafti guruhidagi muskullar esa barmoqlarini bukadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ushbu qo'llanmada kiyim modellari rasmini chizishda gavdaning tashqi shakllari plastinkasi ta'sir ko'rsatadigan muskul va suyaklar haqidagina so'z yuritilgan. Qo'llanmada tavsiya qilinadigan kiyimli gavdaning rasmini solish usullari yalang'och gavda rasmini asliga qarab chizish tajribasi bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Erkak va ayol gavdasining fizikaviy qiyofasi bir-biridan farq qiladi. Bu tafovutlar skeletdayoq o'z ifodasini topgan. Odatda, erkaklarning bo'yi balandroq, ya'ni baland bo'yi erkaklarning bo'yi nasldan yuqori, o'rta bo'yliklarniki esa 165 sm, ayollarning bo'yi 8—12 sm pastroq bo'ladi. Erkaklarda suyak chiziqlari va muskul relyefi aniqroq, yelkalari sonlaridan keng, gavdasi esa tik va biroz orqaga og'ganroq bo'ladi. Ko'krak aylanasing antropologiyasi juda yaxshi o'rganilgan; erkaklarda bu o'lchov orqada — ko'krak suyaklari ostidan, oldinda esa ko'krak bezlari uchi atrofidagi pastki segment bo'yicha o'lchab aniqlanadi. Yoshi ulg'aygan sari ko'krak aylanasing o'lchami orta boradi, qarigandan keyingina biroz qisqaradi.

Bir yashar go'dakning ko'krak aylanasi 49 sm ga teng. 25—26 yoshdagi yigitlarda ko'krak o'lchami «marra»siga yetadi va o'zgarmaydi. Erkaklar 40 yoshlarda jadal semira boshlaydi, shu sababdan ko'krak aylanasi o'lchami ortadi. Faqat 60 yoshdagina ko'krak aylanasi o'lchami qisqaradi. Katta yoshdagi kishilar vaznining 40 kg dan kam yoki 99 kg dan ziyod bo'lishi patologik kasallik hisoblanadi. O'sish davrida tananing vazni ortaveradi; 25—40 yoshlarda vazn barqarorlashadi. 40 dan 55 yoshgacha tana vazni har besh yilda o'rta hisobida 1,0 — 1,5 kg ga ortadi. Jussa (tana tuzilishi) muayyan belgilar majmuyiga bog'liq bo'lib, kishining qaddi-qomatini ifodalaydi. V.V. Bunak



Nazorat savollari

- ## Adabiyotlar

1. Р. М. Букшпа. Чизмачилик ва махсус размерлар чизishi. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А. П. Рогова. Эскилар ва болалар уст кийимини конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.

Ushbu mavzuning maqsadi bir necha xarakterli tarzda olingan holatdagi kalla shaklini to'g'ri tasvirlash, o'quvchilarni odam gavdasidagi mutanosiblik nisbatlarini aniq aks ettirish va o'rgatishdan iborat.

Yuqori hudud (I) — bu asosan, insonning butun hayotini oʻz ichiga olgan qismidir. Ushbu qismdan shaxsning 15–30 yoshgacha va keksalikdagi hayoti haqida maʼlumot olish mumkin. Pechonaning toʻgʻri shakli va sogʻlom rangi tana va ruhiyatning yaxshi holatini bildiradi.

O'rta hudud (2) qoshlardan burun uchiga qadar bo'lib, 35 dan 50 yoshgacha bo'lgan hayot yo'lini anglatadi. Bu hududning muhtasib uyg'unligi ruhiy vazminlikdan dalolat.

Quyí hudud (3) burun uchidan iyakka qadar. 51 dan 77 yosh va undan ortiq muddat haqida ma'lumot beradi. Bu hududning shakllanganligi yaxshi xarakterni bildiruvchi belgidir.

Karmik (Xind) falakiyot namoyandalari har qanday inson yuzini, yetti sayyoradan biriga mos keladigan yetti qismga bo'lishadi. Sayyoralarining har biri insonning ma'lum ruhiy holatiga mos bo'lib, ularni boshqaradi.

- 1 — o'ng ko'z (Quyosh);
- 2 — chap ko'z (Oy);
- 3 — peshona (Yupiter);
- 4 — iyak (Saturn);
- 5 — burun (Mars);
- 6 — og'iz (Venera);
- 7 — Yonoq (Merkuriy).

Bosh ikki qismdan iborat — yuz va miya kesimi. Boshning umumiy kesimini o'rganish frenologiya fani yo'nalishidir. Tahlil qilishda boshning shakli, hajmi va tuzilishi e'tiborga olinadi.

Frenologiyada uch xil bosh farqlanadi:



Yuzdagi hududlar.

Uzunchoq bosh — bosh balandligi ko'ndalang hajmiga nisbatan ortiqroq bo'lishi bilan ajralib turadi:

1. O'rtacha bosh — ko'ndalang va bo'y diametrining o'rtacha mutanosibligi bilan ahamiyatli;


2. Kalta bosh — ko'ndalang diametrning kattaligi bilan farqlanadi.

Bosh shaklini o'rganishda asosiy omil uning tana hajmiga mutanosibligidir. Yuqorida aytganimizdek, bosh tana hajmining sakkizdan birini tashkil etishi kerak. Boshning bo'yiga yoki eniga ortiqcha kattaligi, biror tarafga bo'rtganligi uning nomutanosibligini ko'rsatib, ruhiy yoki anatomik patologiya belgisidir.

Dunyoda mukkamal simmetriya va mutanosiblikka ega yuzli shaxs yo'q. Yuz mukammal, mutanosib va simmetrik shaklga ega bo'lsa, sun'iy ko'rinish kasb etib, jonsizday tuyuladi. Shuning uchun, har birimiz qaysidir jihatdan assimetriyaga, soch turmagi, kosmetika, kiyinishda (tugma, cho'ntaklar, taqinchoqlar) ajralib turishga intilamiz.

Yapon maktabi inson yuzini uch qismga — boshning soch qoplamali qismidan qoshga qadar (1); qoshdan burunning quyi qismigacha (2); burun uchidan iyakka qadar (3) bo'lib o'rganadi va bu bo'linishda yuz mutanosibligi muhim o'rin tutadi. Mutanosiblikdan chetlashishni genetik va klinik siljish (buzilish) sifatida qabul qilish mumkin.

Umumiy tarzda kalla tuxum shaklida, yuqori qismi deyarli har doim pastki qismidan keng bo'ladi. Shu shakl chegarasida kalla mutanosibligi har xil bo'lishi mumkin. Kalla shakli suyak-




25-rasm. Yuz hududlari: 1 — boshning sochli qoplamali qismidan qoshga qadar; 2 — qoshdan burunning quyi qismigacha; 3 — burun uchidan iyakka qadar.

ning tuzilishiga bog'liq. Ovalning balandligi kalla suyagi balandligiga mos, kengligi esa yonoq suyagi chiziqlari bilan chegaralanadi. Turli davr rassomlari kalla mutanosibligining qonuniyatlarini topishga uringan, anatomik tuzilishi asosida kalla sxemalarini yaratishgan. Katta yoshdagi odam kallasi balandligi butun gavdasi balandligining 1/7 yoki 1/8 ulushini tashkil etadi.

Qadimgi yunon kanonlariga muvofiq o'rta va ko'ndalang chiziqlar qanshardagi nuqtada kesishib, prestovina hosil qiladi. U kallaning vaziyatini belgilaydi va rasm chizishdagi keyingi vaziyatlar uchun asos bo'ladi. Sochlar tugagan joydan iyak uchigacha bo'lgan yuz qismi qosh chiziqlar va burun asos chiziqlari vositasida uch teng qismga bo'linadi. Ko'zlar orasidagi masofa ko'z eniga yoki burun asosi kengligiga teng hisoblanadi. Quloqlarning holati qoshlar sathi va burun tagi bilan chegaralanadi. Ya'ni quloq yuzning uchdan bir qismini tashkil etadi. Og'iz qiyig'i burun tagidan iyak uchigacha bo'lgan masofaning 1/3 qismida yotadi. 26-rasmdan ko'rinib turibdiki, surati solinayotgan kishining kallasi ko'zimiz sathida tursa, qosh usti yoylari chizig'i, qosh va iyak chiziqlari to'g'ri chiziqlar bilan tasvirlanadi. Agar kalla pastga engashgan bo'lsa, barcha konstruktiv chiziqlar pastga qaragan yoy shaklida chiziladi.


Kallaning 1-rasmini old tomonidan chizgan ma'qul, chunki bu vaziyatda kalla balandligini teng ikkiga bo'lamiz va qanshar hamda ko'z o'rtasidan o'tadigan ko'ndalang chiziq o'tkazamiz, butun kalla o'lehamidan soch taxminan yettidan bir (1/7) qismini egallaydi. Yuzning butun kattaligini teng 3 bo'lakka bo'lamiz, bunda yuqori bo'lak peshona balandligiga, o'rta bo'lak burun uzunligi va quloq balandligiga, pastki bo'lak esa iyakka



26-rasm. Odam kallasi har xil holatdagi rasmi.

mos keladi. Kalla kengligi burun uchidan to kallaning o'rtasigacha bo'lgan masofaga yoki modulning S qismiga teng. Shu kattalikni ko'ndalang chiziqa qo'yamiz va kallaning eng katta qismini belgilaymiz. Bilinar-bilinmas ingichka chiziq bilan kalla ovalini chizamiz. Burun, og'iz, ko'z shakllarini umumiy tarzda belgilab olamiz. Burun shaklining asosini prizma tashkil qiladi. Og'iz har doim burun tagidan katta bo'ladi. Quloq suprasining o'rni quloqning burunga nisbatan holati, past yoki yuqoriroq joylashganligida aniqlanadi. Ingichka chiziqlar bilan qosh, ko'z, lab, quloq rasmlarini chizamiz (pastki lab uski labdan biroz yo'g'onroq chiziladi). Yuz ovaliga aniqlik kiritamiz va soch shaklini belgilab olamiz. Bo'yin va yelkalarni chizamiz, (26-b rasm) rasmda hajmiylik aks etishi uchun asosiy soyalarni berish mumkin.

Kalla rasmi chizilgan barcha juft shakllar o'rta (profil) chiziqa nisbatan simmetrik joylashgan edi. Kalla bir tomonga burilganda, o'rta chiziq surilib yoy shaklini oladi. Sochning barcha qismlari o'rta chiziqa nisbatan simmetrik yotib, qoshlar, burun tagi, iyak o'rtasi va bo'yin asosidagi ko'k tomir chuqurchasi orqali o'tadi.




27-rasm. Kalla rasmini oldindan chizish.

O'rta chiziqni o'tkazamiz (27-a rasm), unda ixtiyoriy ravishda kalla balandligini belgilaymiz. Pastki nuqtadan pastga tomon kalla balandligining uchdan bir qismiga teng bo'lgan bo'yin balandligini qo'yamiz va shu nuqta orqali yelka chizig'ini ikkala tomonga kalla balandligiga teng kesimlar qo'yamiz. Yelka kengligini bildiradigan bu kesmalardan har qaysisini yana 4 qismga bo'lamiz. O'rtasidagi 2 kesma bo'yin kengligini bildiradi. Kalladagi juft shakllar — ko'zlar, yonoqlar, qosh usti yoylari kallaning burilishi darajasiga qarab har xil bo'ladi (28-rasm). Shunga qarab shakllari o'zgaradi.


Ayollar boshi erkaklarga nisbatan yigirma foyizga kichikroq bo'lishi fanda isbotini topgan. Umuman, ko'p ayollar peshonasi silliq, bo'rtib chiqmagan jag'lar nisbatan ingichka, qosh usti yoyi ajralib turmaydi. Ayol yuzini ajratib turuvchi belgi kichkina quloq chanoqlari va yumshoq chiziqli iyakdan iborat. Qadimiy maktablarning har qaysi odam yuzini, yuqorida ko'rsatilganday, o'zigi xos qismlarga ajratgan. Ko'hna Xitoy fiziognomistlari yuzni besh unsur: temir, suv, daraxt, olov va tuproqqa nisbatlaganlar.

Mumtoz anatomiya yuzni bir necha asosiy qismga bo'ladi: peshona (1); ko'z (2); burun (3); ko'z osti (4); og'iz (5); iyak (6); lunj (7); quloq-jag' (8); yonog' (9); chakka (10). Ovrupa, O'rta Osiyo, Xitoy va Yapon fiziognomika maktablari tabiblari va ulamolari yuzning asosiy 5 shaklini farqlaydilar.

Kalla balandligini hamda vertikal bo'yicha barcha bo'linmalarni xuddi kallani oldidan chizgandagidek belgilaymiz. So'ngra o'rta chizig'ining yangi vaziyatini belgilaymiz va bo'lish nuqta orqali barcha ko'ndalang chiziqlar — qosh, ko'z va h.k. chiziqlarini o'tkazamiz. Yuzning qavariqligiga qarab yuz chizig'i biroz qavariqroq qilib chiziladi. Kallaning burilishi darajasiga qarab uning oval shaklini belgilaymiz. Kalla shaklini aniqlashtirib, orqa qismini va pastki jag' burchagini chizamiz. Agar kalla pastga egilgan yoki yuqoriga ko'tarilgan bo'lsa, ko'z, qosh, burun, jag', og'iz va h.k. orqali o'tadigan ko'ndalang chiziqlar yoy shaklini olib, kallaning burilishi darajasini ifodalaydi. So'ngra yuz belgilanadi: burun shakli, old va yon sirtlari chiziladi, ko'z



28-rasm. Yuzning qismlari.



29-rasm. Kallaning burilgan holatdagi rasmini chizish.

kosalarining vaziyati, shakli aniqlanadi va chiziladi. Kallaning burilgan holatdagi rasmini chizganda shakllarni perspektiv qisqartirishni esda tutish lozim.

Nazorat savollari

1. Kalla umumiy tarzda qanday shaklda?
2. Katta yoshdagi odamlar kallasi baliq shaklida? qanday?
3. Kallani chizishda nima asos qilib olinadi?
4. Kallani chizishda barcha simmetrik a'zolari nima nisbatan olinadi?

Adabiyotlar

1. P.M. Бухаца. Чизмачилик ва махсус расмлар чизилиши. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А.П. Розова. Эскизлар ва болача уст кийимини конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.
3. Е.А. Яковлев. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. — Т.: «Ўқитувчи», 1996.
4. F. Shirinov, Sh. Shirinov. «Yuzdagi timsollar». — F. «Farg'ona» nashriyoti, 2006.

III.5. OYOQ VA QO'LLAR RASMINI CHIZISH

Oyoq-qo'llar rasmini chizish ancha murakkab. Buning uchun kuzatish, asldan va xayolan rasm chizishni mashq qilish kerak. Sxematik tasvirlash uchun yelka, bilak, panja, boldir, tovonning umumiy proporsiyalarini, ularning rejalashtirishini va rasmning yasashini o'zlashtirib olish kifoya. Boldirning eni boldir-o'yoq muskullarining shakli bilan aniqlanadi.

Tovon rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki, uning balandligi modulning uchdan bir qismiga yoki yarmining beshdan bir qismiga teng. Odam gavdasining olddan ko'rinishini perspektiv tasvirlashda oyoq barmoqlari tovon sathidan taxminan modulning uchdan bir qismigacha pastroq yotadi, modulning eskizlarida odam gavdasini poyabzal bilan birga chizishga to'g'ri keladi. Burilgan vaziyatdagi gavda rasmini chizishda oyoqlarning perspektiv holatini yanada jiddiyroq hisoblashga to'g'ri keladi. Chunki oyoqlarni joylashtirish eskiz chizishning muhim qismidir. Gavda yuqori qismi rasmini oyoq panjalariga shunday bog'lash kerakki, gavda tayanch nuqtasiga ega bo'lib, uning turg'unlashishi sezilib tursin.


Qo'llarning holati har xil bo'ladi. Bir qo'l tushirilgan, ikkinchi qo'l tirsakdan bo'lingan bo'lishi mumkin. Yelka kamarining belgilangan sxemasi bo'yicha (yelkani to'rt bo'lakka bo'lganda) gavda rasmini chizish uchun barcha ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Qo'lning anatomik tuzilishidan ma'lumki, u go'yo uchta richagga ega. Agar qo'lning ayrim qismlarini taqqoslasak, yelka qismi bilak qismidan, bilak esa panjalaridan uzunroq ekanligini ko'ramiz. Panja taxminan bilak uzunligining uchdan ikki qismi yoki modulning to'rt dan uch qismini tashkil qiladi. Tushirilgan qo'l uchi sonning bel chizig'ida turadi. Bukilgan qo'l tirsak bo'g'inining vaziyatini topish uchun yelka o'rtasidan bel chizig'igacha masofada yoy o'tkaziladi, bukilgan qo'l rasmini chizishda erkaklar gavdasida bu nuqtani yelka eni tomonga biroz surish kerak, chunki erkaklar qo'li ayollarnikiga qaraganda uzunroq bo'ladi.

Boldir-oyoq muskullari (boldirning eng keng qismi) holatini aniqlashda tizzalarning pastidan to'vongacha bo'lgan masofani beshta teng bo'lakka bo'larniz. Bo'linmaning yuqori nuqtasini orqali gorizontall chiziq o'tkazib, unga 1,4 modulni qo'yamiz. Shu tariqa boldir-oyoq muskullarining holati va enini belgilaymiz.

Qo'l rasmini chizish uchun qo'lingizning bir necha xil ko'rinishdagi rasmini chizib qo'yish juda foydalidir. Bunda eng xarakterli harakatni, asosiy siluetni aks ettira olish juda muhim (30-rasm). Buning uchun qo'l uni bukkanda bir-biriga nisbatan ma'lum burchak ostida joylashadigan uchta richagga — yelk, suvagi richagi, bilak va barmoqlar richagiga ega ekanligini eslatish kifoya. Barmoqlarni umumiy qiyofasiga chizish va barmoqlar hamda bo'g'inlar bukkiladigan joylarni bilinar-bilinmas chiziqlar bilan ko'rsatish kerak. Bosh barmoq alohida chiziladi so'ngra qo'l panjalari rasmi chiziladi.

Qo'l proporsiyalarini eslatib o'tish kerak. Panja bilakning taxminan uchdan ikki qismiga teng. Barmoqlar uzunligi (o'rtacha barmoq uzunligi olinadi) panja umumiy uzunligining yarmiga teng. Tushirilgan qo'lning o'rtacha barmog'i son o'rtasida yotadi. Qo'l tushirilganda tirsak bel sathida turadi. Kiyim modellarning eskizlarida qo'l, odatda, shartli ravishda chiziladi (kontur chiziladi). Kiyim eskizi rasmini chizishda qo'llarning holati katta ahamiyatga ega, ular yeng bichim qanday bo'lishi kerakligini aniqlashda, kostumning vazifasini aks ettirishga yordam beradi.



30-rasm. Qo'l panjalari rasmini chizish.

ayvda holatining xarakteri aniqlangandan so'ng qo'llar rasmini chizish kerak.

Poyabzal rasmini chizish tartibi 30-rasmda ko'rsatilgan. Poyabzal prizma tarzida berilgan. Prizma yoqlari ko'tarmasiga (podyomga), yuzasiga va tovon balandligiga mos keladi. Quyidagi tartibda ish ko'riladi:


1. Taxminan 30 burchak ostida chiziq chizib, uning uzunligini cheklab olarniz, u tuflari, yarimbotinka uzunligi bo'ladi.

2. Bu uzunlikni teng uch bo'lakka bo'larniz va bo'linishi orqali vertikal chiziqlar chiqaramiz.

3. Boshlang'ich nuqtadan boshlab yuqoriga yarimbotinka uzunligining uchdan biriga teng masofani o'lchab qo'yarniz, shunda dastakning balandligi hosil bo'ladi. Keyin uni teng uch bo'lakka bo'larniz, pastki bo'lak poshna hamda poyabzal uchining balandligini bildiradi. Poshnaning ichki qismidan to poyabzal uchigacha bo'lgan masofani ikkiga bo'lib, ko'tarma (podyom) balandligini aniqlaymiz.

4. Yarimbotinkaning asosiy proporsional nisbatlarini aniqlagach, asliga qarab rasmini chizarniz (bu rasmda poyabzal kengligi dastak balandligining yarmidan oshmaydi).

Erkaklar tuflisining yondan ko'rinishdagi rasmini chizish usuli 31-rasmda ko'rsatilgan. Poshnaning tagi tayanch tekislik



IV. RANGLAR HAQIDA TUSHUNCHA

IV.1. XROMATIK VA AXROMATIK RANGLAR


Atrofimizni turli-tuman ranglar chul'ab olgan. Rang tabiat boyligi, uning hayotiy moslashuvchanligining saxiy ifodasi, turmush quvonchi, bezagidir. *Rang* — yorug'lik nurlarining atrofdagi jismlarga, narsalarga va hokazolarga urilib qaytishidan hosil bo'lgan ma'lum bir natija. Masalan, jisimga yashil nurlar tushsa yashil, qizil nurlar tushsa qizil bo'lib ko'rinadi.

Kishilarga xos bo'lgan estetik intilish ularning o'zini ham bo'yoqlar yaratishga o'rgatadi. Ranglar his-tuyg'uga juda katta va har xil ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi ranglar kishiga taskin beradi (tinchlantiradi), ko'ngilni ko'taradi, ko'zni quvontiradi, bosh-qalari hayajonlantiradi, ma'yuslantiradi va tashvishlantiradi. To'q yoki nafis ranglar, yoqimli va xira ranglar farq qilinadi.


Inson ajoyib ranglarni kashf etib ularni mukammallashtirmoqda. Ranglar shoyi gazlamalarda tovlanadi, jilvalanadi, ular rasmlarga barhayotlik bag'ishlaydi. Rang qudratli, hal qiluvchi kuch sifatida o'z ta'sirini o'tkazadigan narsalar, sohalar-ning sanog'i yo'q. Tabiatda ham rang xuddi qadim-qadim-lardagidek kishilar xayolini to'liqlantirishda davom etmoqda. Osmondagi kamalakning mayin va beqiyosligiga hayajonlanmay qarab bo'ladimi? Bu manzara har doim zavq bag'ishlaydi. Kamalakning uch asosiy rangi — qizil, sariq va ko'k ranglarda bitmas-tuganmas qudrat yashiringan. Ularni aralashtirib, rang-barang, son-sanoqsiz rang va tuslarni hosil qilish mumkin.

Jami ranglar *xromatik* (bo'yalgan) va *axromatik* (bo'yalmagan, ya'ni tussiz) ranglarga ajratiladi (oq, kulrang va qora rang).

Axromatik rang — oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug'lik kuchlari bilan farqlanadi. Axromatik ranglar bitta xossaga — ochiqlik xossasiga ega; ularda rang bo'lmaydi, ular ma'lum darajada och yoki to'q



32-rasm. Xromatik rang.



31-rasm. Erkak va ayollar poyabzallari rasmini chizish.

hisoblanadi. Bunda tovon biroz orqaroq surilib turadi. Kiyim modellari eskizlarida poyabzal, odatda, quyidagi tarzda ko'rsatilgan:

Nazorat savollari

1. Oyoq-qo'llar rasmini chizishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Tovu rasmini chizishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Qo'llarning vaziyati qanday bo'ladi?
4. Qo'llarning anatomik tuzilishini tushuntiring.
5. Kiyimni chizishda qo'llarning vaziyati qanday ahamiyatga ega?

Adabiyotlar

1. P.M. Букана. Чизмачилик ва махсуе расмлар чизиш. — Т.: Ўқитмуеи, 1978.
2. А.П. Розова. Эркалар ва болалар уст кийимни конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитмуеи, 1988.
3. Е.А. Явичский. Аёллар уст кийимни конструкциялаш. — Т.: «Ўқитмуеи», 1996.

bo'lishi mumkin. Agar material yorug'lik oqimini to'liq qaytarsa yoki yutsa *axromatik* rang (oqdan qoragacha); yorug'lik oqimini to'liq qaytarganda — oq rang, to'liq yutganda — qora rang, bir me'yorda chala yutganda — har xil tuslardagi kulrang hosil bo'ladi. Asosiy *xromatik* ranglar uchta: sariq, ko'k (zangori), qizil. Ular ko'zimizga juda toza, sof bo'lib ko'rinishi bilan boshqa ranglardan ajralib turadi, boshqacha aytganda, ranglarga bo'lingan doiradagi qo'shni ranglarga oid tuslar go'yo xira, hatto yo'qdek tuyuladi.

Boshqa ranglar ana shu to'rtta asosiy ranglarning aralashuvidan hosil bo'ladi va *oraliq ranglar* deb yuritiladi. Xromatik rangning ochiqqligi (yorqinlik) jihatdan o'ziga teng bo'lgan axromatik rangdan tafovut darajasi *to'yinganlik* deyiladi.

Rang to'yinganligi deb xromatik ranglarning yorqinligi bo'yicha o'ziga teng keladigan kulrang axromatik rangdan ko'p yoki kam miqdorda singdirish qobiliyatiga aytiladi. Gazlamalar ichida oqlik darajasi har xil bo'lgan matolar uchraydi. Xuddi shuningdek, qora ranglarning ham turli-tuman xillari bo'ladi. Ma'lumki, eng qora rang qora baxmalning rangi bo'lib, u ochiqqligi eng kam axromatik rangga misol bo'lishi mumkin.


Xromatik ranglar sovuq va iliq ranglarga bo'linadi. Yashil — zangori, ko'k; binafsharang — muz, ko'kat, metall ranglarini eslatganligi uchun bu ranglar sovuq ranglarga kiritiladi.

Sariq, zarg'aldoq, qizil ranglar quyosh nuri, olov tafti haqida tasavvur bergani uchun iliq ranglarga kiritiladi. Xromatik rang uchun yorqinlik va ohangdoshlik xosdir.

Rang yorqinligi deb rangi tushayotgan yorug'lik nurlaridan ko'p yoki kam miqdorda jilolanishi xossasiga aytiladi.

Yorug'lik nurlari ko'p aks etsa, rang och tusda, kam aks etganda esa to'q tusda jonlanadi.

Xromatik ranglar orasida to'yingan va kam to'yingan ranglar bo'lishi mumkin. Och pushti, och yashil va h.k. ranglar kam to'yingan ranglarga misol bo'ladi.



33-rasm. Asosiy ranglardan hosil bo'lgan ranglarning paydo bo'lishi.

To'yingan ranglar spektr ranglardir. Ranglarning oqqa ko'proq yoki kamroq yaqinligi *ochiqlik* deb ataladi. Masalan: sariq rang va uning tuslari (sarg'ish yashil, sarg'ish zarg'aldoq) ko'k va binafsharaglardan ancha ochroq va h.k.

Agar kamalakni xayolan davom ettirsak, u rang doirasini hosil qiladi. Bu doiradagi uch asosiy rang — qizil, sariq, ko'k ranglar orasida oraliq ranglar deb ataladigan ranglar yotadi. Masalan: qizil va sariq ranglar orasida zarg'aldoq; sariq va ko'k ranglar orasida yashil; ko'k va qizil ranglar orasida binafsha ranglar yotadi. Ikki asosiy rangni aralashtirib, oraliq rangni hosil qilish mumkin.

Ranglarni aralashtirib ikki xil rangdan uchinchi xil rangni hosil qilish, masalan, qizil, sariq — zarg'aldoq, binafsha rang — qizilni ko'kka, yashil rang — ko'kni sariqqa qo'shib hosil qilinadi. Asosiy ranglarni biriktirish qonunlarini bilib, zarur tusdagi bo'yoqni hosil qilishimiz mumkin.

Turli biriktirishlar yo'li bilan ko'paytiriladigan kamalak ranglarga kiradigan bu ranglarning guruhiga oq, qora, ko'k rang kiradi. Bular *shtrix ranglar* deb ataladi.

Har qanday tovushlarni pala-partish qo'shilishidan kuy hosil bo'lmaganidek, tonlarning har qanday birikishi ham ranglar garmoniyasini, ya'ni buyumni ko'zni quvontiradigan va o'ylagan fikrlarning amaldagi aksi bilan uyg'otadigan rangiy tovlanishini yaratib bermaydi.

Ranglarning uyg'unligini tanlashni umumiy biriktirishdan, masalan, qorani oq bilan, havorangni qora bilan, sariqni jigarrang bilan biriktirishdan boshlash kerak.

Bunda rang doirasida joylashgan qo'shimcha ranglarni aralashtirishga shoshmaslik kerak. Rang tanlashdagi buyumning vazifasi (sportlik, bayramlik, qishki, yozgi ekanligi) hamda fasoni va gazlama fakturasi, eng muhimi, kiyim kiyadigan kishining holati muhim rol o'ynaydi.

Yondosh ranglar ta'siri

Bir xil ranglar ikkinchi xil ranglar ta'sirida turlicha tovlanadi. Masalan, qizil rang boshqa ranglarga ko'k, zarg'aldoq yashil tus beradi va h.k.

Sovuq ranglarning ham, iliq ranglarning ham to'yinganligi uyg'unlashuv yo'li bilan kuchayadi. Rang effekti rangning intensivligi yoki to'yinganligiga bog'liq. Yorqin, ochiq ranglar kishiga lirik kayfiyat bag'ishlaydi. Intensiv va yorqin ranglar

ko'tarinki ruh paydo qiladi. Bo'yoqlarning rang-barangligi va disgarmoniyasi kishini behalovat qilib, asabiylashtiradi. Rang uyg'unligi ranglarning bir-biriga muvofiq tushishi, o'zaro uyg'unligidir.

Nazorat savollari

1. Rangga izoh bering.
2. Ranglar insonga qanday ta'sir qiladi?
3. Ranglar nechta turga bo'linadi?
4. Asosiy ranglarni sanab bering.
5. Rang uyg'unligi qanday hosil bo'ladi?

Adabiyotlar

1. Р.М. Букана. Чизмачилик ва махсус расмлар чизили. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А.П. Рогова. Эскизлар ва болалар уст кийимини конструкцияли асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.
3. Н. Норманов. Камалак шийидиган уй. — Т.: «Ўқитувчи», 1986.
4. Е.П. Мааюева. Тўқувчилик материаллунулосили. — Т.: «Ўқитувчи».
5. Уй-рўзгор энциклопедияси.

IV.2. MILLIY NAQSH VA RANGLAR JADVALI

Naqsh badiiy bezak biror narsani o'yib, bo'yab yoki tikib hosil qilinadi:

bo'lak (element)lari ma'lum tartibda takrorlanishi mumkin. U har xil shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqa tasvirdan tashkil topadi. Naqshlar islamiy, girih, ramziy kabi turlarga bo'linadi. Naqsh tushiriladigan material xususiyati va ishlanishiga ko'ra turli sohalarga bo'linadi, masalan: ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, tosh-taroshlik, kashtado'zlik, zardo'zlik, kulollik va boshqalar.

Xalq amaliy san'atini o'rganish bolalarning tasviriy-ijodiy faoliyatlarida ham ma'lum rol o'ynaydi. Bunda:

- yuqori badiiy saviyada va mamlakatimiz, shuningdek, chetellarda saqlanayotgan xalq amaliy san'ati asarlarini bilish;
- xalq amaliy san'ati bilan bog'liq bo'lgan yirik muzey-larning nomi va manzillarini bilish;
- O'zbekistonda mavjud xalq amaliy san'ati bilan bog'liq bo'lgan yirik tarixiy va madaniy yodgorliklarni bilish;
- respublikamizdagi xalq hunarmandchiligi korxonalari joylashgan joylarni bilish;
- respublikamiz hududida xalq amaliy san'ati rivojlangan joylarni bilish;
- xalq amaliy san'atining turlari; unda ishlatiladigan asbob va materiallar, qo'llaniladigan usullarini bilish;
- xalq dekorativ-amaliy san'atiga oid ma'lum terminlarni bilish;
- ijtimoiy foydali ishlarda xalq amaliy san'atidan foydalanishni bilish talab etiladi.

San'atning keng tarqalgan turlaridan biri dekorativ-amaliy san'atdir. Bu san'at turi — idish-tovoq, kiyim-kechak, mebel, gilam, o'yinchoq va boshqa shu kabilarni bezatishni o'z ichiga oladi. Dekorativ-amaliy san'at asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofiga, xiyobon-bog', uylarning tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik baxsh etishga

xizmat qiladi. Tasvirlangan buyumlarda shartli elementlar keng o'rinni egallaydi. Dekorativ san'at buyumlari birmuncha erkin ijodkor fantaziyasiga bog'liq holda yaratiladi va, eng avvalo, tevarak-atrofga go'zallik kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, turli naqshlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Dekorativ-amaliy san'at juda qadim zamonlarda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlandi. O'zbekistonda dekorativ-amaliy san'at tasviriy san'atning eng qadimdan rivoj topgan yagona va barhayot turi bo'lib keladi. O'zbek xalqining amaliy san'at asarlarida ko'proq gulzor-bog'lar aks etadi. Chunki jazirama issiq ostida qaqrab yotgan gullarni gulzorga aylantirish qadimdan o'zbek xalqining orzusi bo'lib kelgan.

Amaliy san'atning eng ko'p tarqalgan va eng ommaviy turi kashtachilik bo'lib, u qadimiy an'analarga ega. O'zbek kashtachiligi yuqorida aytib o'tganimizdek, go'zal bog'larni eslatadi. Shuning uchun ham biz o'zbek kashtachiligida majnuntol, quyosh, ba'zan daraxt shoxchasiga qo'ngan qushchalar, hatto hayvon va odam tasvirlarini ham uchratamiz. O'zbekistonning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan hisoblangan Buxoro va Samarqand so'zanalari o'zining serjololigi, shakllarining turli-tumanligi va ularning nihoyatda nozik tikilishi bilan farq qiladi. Shahrisabzlik ayollar tikkan kashtachilik buyumlari esa ko'proq gilamni eslatadi.

O'zbek kashtachiligida do'ppi alohida o'rinni egallaydi. Shahrisabzning gilamdo'ppisi, Buxoroning zardo'ppisi, iroqi, duxoba va boshqa do'ppilar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Qora atlas yoki satin ustiga ipak bilan tikilgan bodom gulli (yoki qalampir), chakkasiga tushirilgan gullar do'ppiga naqshlik baxsh etadi. Ipakdan tikilgan to'rt, sakkiz, o'n ikki tepkili atlaslar jahonga dong taratgan.

Ganchkorlik O'zbekistonda amaliy san'atning eng sevimli va qadimiy turlaridan biri. Amaliy san'atning bu turida Buxoro va toshkentlik ustalar samarali mehnat qilganlar. Avvallari devorlar o'yma gulli pannolar bilan bezatilib, taxmonlar qirrasiga naqsh o'yildirdi. Hozirda qandil, navo, shift kabi me'morchilik detallari ganchlardan tayyorlanmoqda. O'zbekistonning xalq san'atida yog'och o'ymakorligi salmoqli o'rinni egallaydi.

Bu borada Xiva ustalarining ishlari maqtovga loyiqdir. Qadimda uy-ro'zg'or buyumlariga bo'yoqlar bilan ajoyib

naqshlar ishlanib kelingan. Bu *naqqoshlik san'ati* deb yuritiladi. Respublikamizda amaliy san'atning bu turi qadimda rivojlangan bo'lib, unda o'zbek ustalari faqat uy-ro'zg'or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiftlarini ham bezaydilar. O'zbek rassom ustalarining ish uslubi boshqacharoq. Bu ustalar eskiz bo'yicha duradgor ishlagan yog'ochga yelim surtadilar. Naqshlarning o'chib ketmasligi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lok surtiladi. Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko'proq qo'llaniladi: *islimi* — egri chiziqli o'simlik elementlaridan iborat naqsh; *girihi* — to'g'ri chiziqli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; *murakkab naqsh* — bu avvalgi ikki guruhdagi naqsh (islimi va girihi) elementlarning yig'indisidan iborat.

Islimi turdagi asosiy elementlar novda, yaproq, gul, g'uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda — turli naqshlarning eng ko'p uchraydigan elementlaridan hisoblanib, ular naqsh hoshiyalarida qo'llaniladi. Girihi esa to'rsimon va yulduzsimon bo'lib, yulduz qirrasining soni besh-tadan o'n oltitagacha yetadi.

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan o'zlarining zardo'zlik san'ati bilan faxrlanib keladi. Zardo'zlik uchun asosiy xomashyo zar iplar, baxmal kabildirdi. Ustalar zar tikishning ikki turini qo'llashadi. Birinchisi, fonni zar bilan tikib to'ldirish, ikkinchisi, naqshlarni zar bilan tikib to'ldirish.


Chevarlar ornamental va lavhali kompozitsiyalarda ko'pgina o'simliklarni tasvirlashadi. Zardo'zlik Buxoro va Samarqand shaharlarida qadimdan keng rivojlangan. Zardo'z ustalariga yetarli sharoit yaratilgani uchun ishlari yanada rivojlanmoqda.

Ranglar doirasi. Agar kamalakni xayolan davom ettirsak, u rang doirasini hosil qiladi. Bu doiradagi uch asosiy rang — qizil, sariq, ko'k ranglar orasida oraliq ranglar deb ataladigan ranglar yotadi. *Oraliq ranglar* — rang doirasining tashqi halqasida sariq, yashil, ko'kish-binafsha va hokazo tartibda joylashadigan ranglar hisoblanadi. Masalan, qizil va sariq ranglar orasida zarg'aldoq; sariq va ko'k ranglar orasida yashil; ko'k va qizil ranglar orasida binafsharang yotadi. Ikki asosiy rangni aralash-tirib, oraliq rangni hosil qilish mumkin; zarg'aldoqrang qizilni sariqqa, binafsha rang — qizilni ko'kka, yashil rang — ko'kni sariqqa qo'shib qilinadi. Asosiy ranglarning birikish qonunlarini bilib, zarur tUSDagi rangni hosil qilish mumkin. Turli biriktirishlar

yo'li bilan ko'paytirilgan kamalak ranglariga kiradigan bu ranglar guruhidan tashqari boshqa ranglar gruppasi ham bo'lib, unga oq, qora, kul ranglar kiradi. Bular *neytral ranglar* deb ataladi. Neytral ranglar asosiy yoki oraliq ranglarni bo'rttirib ko'rsatadi.



34-a rasm. Naqshlardan namunalar.



34- b, d rasm. Ranglar jadvalini hosil qilish.

Nazorat savollari

1. Naqsh deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy naqshlar qanday san'at turi hisoblanadi?
3. Naqshlar qanday buyumlarga tushirilishi mumkin?
4. Naqshlarga nimalar aks ettiriladi?
5. Oraliq ranglar qanday hosil qilinadi?

Adabiyotlar

1. P. Xasanoa. Мактаб тасвирий санъат машгʻулотларини такомиллаштириш йўллари. — Т.: Ўқитувчи, 1986.
2. P.M. Букава. Чизмачилик ва махсус расмлар чизили. — Т.: Ўқитувчи, 1978.

V. KIYIM MODELARINI CHIZISH. KISHI GAVDASI BURILGAN (FAS) HOLATIDA KIYIM BILAN CHIZISH

V.1. AYOLLAR GAVDA TUZILISHINI SXEMA BO'YICHA CHIZISH


Kiyim rasmini shunday chizish kerakki, uning ostidagi odam gavdasi sezilib tursin, uning mutanosibligi va shakllari hisobga olinsin. Agar yalang'och odam gavdasi rasmini chizishning iloji bo'lmasa, kiyimli gavdaning xomaki rasmi chiziladi. O'quvchilar bir-birlarining rasmini chizishlari mumkin. Xomaki rasm chizish 5 — 30 daqiqa davom etadi. Bunday mashg'ulotlarning asosiy vazifasi gavda holatining umumiy rasmini chizish va mutanosiblikni belgilashdir.

Rasm chizishda shartli ravishda vertikal chiziqli tarzda aks ettiriladigan umurtqa ustunlari anatomik tayanch sterjen vazifasini o'taydi.

Odam gavdasi sxemasini chizishda kiyim modellarning rasmini chizish uchun kanondan foydalanish oson va qulay. Bu kanonda modul sifatida gavdaga 8 marta joylashadigan kalla balandligi olinadi. Gavda rasmini chizish uchun qog'ozdagi vertikal chiziqli, naturadagi shovun rasm chizmaning birinchi bosqichida kerak bo'ladigan mo'ljallargina, xolos. Ular gavda asosiy shakllarining o'zaro joylanuvini aniqlashga imkon beradi. Barcha burilish vaziyatlaridagi bosqichlarni tushuntirishning hojati yo'q. Biz faqat gavdani oldidan tasvirlash ustida to'xtalib o'tamiz. Qog'oz listga rasmning kompozitsion joylashuvini aniqlaymiz. Uning balandligini chiziqlar bilan belgilaymiz, vertikal chiziqli o'tkazib, uni 8 bo'lakka bo'lamiz. Tos balandligi belgilanadi, u o'rta gorizontali chiziqli yotadi. Birinchi modul chegarasida kalla joylanadi, navbatdagi bo'linmada ko'proq chiziqli iyakdan o'tadi.

Ko'krak chizig'idan pastga bel chizig'ini, son chizig'idan pastga sonning o'rtasini, son o'rtasidan pastga tizza kosa-chasining pastki chegarasi chizig'ini belgilaymiz. Tizzadan pastga boldir o'rtasi chizig'i chiziladi.

Yelka chizig'i iyak chizig'idan modulning uchdan bir qismiga pastroq o'tadi. Yelka kamarining eni ikki modulga, bo'yin eni



35-rasm. Gavda rasmini sxemadan foydalanib chizish.

modulning yarmiga, bel kengligi bir modulga teng. Son eni grafikaviy tarzda (sxema bo'yicha) quyidagicha aniqlanadi: agar yelka va bel nuqtalari birlashtirilib, hosil bo'lgan chiziqli ko'krak chizig'i bilan kesishish nuqtalaridan vertikal chiziq o'tkazilsa simmetriya o'qi hosil bo'ladi. Ana shu simmetriya o'qining ikkala tomoni bo'yicha sonlarining eni aniqlanadi. Oyoq-qo'llar rasmini chizish ancha murakkab. Buning uchun kuzatish hamda aslidan va xayolan rasm chizishni mashq qilish kerak. Sxematik tasvirlash uchun yelka, bilak, panja, boldir, tovonning umumiy proporsiyalarini, ularning rejalanihi va rasmining yasalanishi o'zlashtirib olish kifoya.


Boldirning eni boldir chiziqcha oyoq muskullarining shakli bilan aniqlanadi.

Qo'llarning anatomik tuzilishidan ma'lumki, u go'yo uchta ritchagga: yelka suyaklarini yo'naltiradigan, bilakni va qo'l panjalarini yo'naltiradigan richagga ega. Agar qo'lning ayrim qismlarini taqqoslasak, yelka qismi bilak qismidan, bilak esa panjalaridan uzunroq ekanligini ko'ramiz.

Tushirilgan qo'l uchi sonning o'rtasigacha keladi. Bukilgan qo'l tirsagi bel chizig'ida turadi. Bukilgan qo'l rasmini chizishda erkaklar gavdasida bu nuqtani (yoy markazi o'rnida olib) yelka eni tomonga biroz surish kerak, chunki erkaklar qo'li ayollar-nikiga qaraganda uzunroq bo'ladi. Shuni aytish kerakki, gavda rasmi to'g'ri olinganda bo'yin-eni modulning yarmiga teng bo'lgan silindrni eslatadi.

Ayol gavdasini tasvirlashda yelkalar eni quyidagicha aniqlanadi: yelka kamari o'rta chiziqdan ikkala tomonga kalla balandligidan biroz kichikroq masofani o'lchab qo'yish, bel chizig'ini aniqlashda esa iyakdan pastga yelka kengligiga teng yoki biroz kattaroq masofani o'lchab qo'yish kerak. Ana shu yordamchi chiziqlar bo'yicha kiyimli va kiyimsiz siluet belgilar olinadi. Kiyimsiz belgilangan siluetga keyin kiyimning rasmi chiziladi.

Boldir — oyoq muskullari (boldirning eng keng qismi) ni aniqlashda tizzalarning pastidan tovongacha bo'lgan masofani



36-rasm. Ayollar byusti va torsining rasmini chizish.

beshta teng bo'lakka bo'lamiz. Bo'linmaning yuqori nuqtasi orqali gorizontaal chiziq o'tkazib, 1/4 moduli qo'yamiz.

Kalla va gavdaning mutanosiblik sxemasi tartibi 34-rasmda berilgan. Mutanosiblik sxemasi erkak va ayol byusti rasmini chizish uchun umumiy hisoblanadi, sxemadan faqat asosiy nuqtalar sxemasi sifatida foydalanib, burilgan byust rasmini chizish bilan tanishamiz.

Burilgan holatdagi byustni tasvirlashda ba'zi yangi rasm chizish usullarini uchratamiz. Tana biroz burilganda o'rta chiziq — ko'krak biroz bukilishini hisobga olish kerak. Bukilish xarakteri biz qanday byustning — ayol yoki erkak byustining rasmini chizishimizga bog'liq. Har qaysi yelkaning o'rta nuqtalaridan qavariqligi yo'nalishida yoysimon chiziqlar o'tkazamiz, bu chiziqlar ko'krakning tashqi shaklini bo'rttirib turadi va ko'kraklar orasidagi masofani belgilaydi. So'ngra ko'krak bezlari umumiy qiyofasini chizamiz, qo'llar holatini tasvirlaymiz. Byustning bir necha rasmini chizib, ular asosida o'z kiyimingiz (kofa, ko'ylak, nimcha, yoqalar va h.k.) modelini ishlab chiqsangiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tors — tananing boshsiz, oyoq-qo'lsiz qismi.

Nazorat savollari

1. Odam gavdasini chizishda nima sterjen vazifasini bajaradi?
2. Rasmining kompozitsion joylashuvi qanday aniqlanadi?
3. Ayol gavdasini tasvirlashda yelka eni qanday aniqlanadi?

Adabiyotlar

1. P.M. Буканов. Чизмачилик ва махсуус расмлар чизили. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А.П. Рогова. Эркаслар ва болалар уст кийимини конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.
3. Е.А. Янцеский. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. — Т.: «Ўқитувчи», 1996.

V.2. AYOLLAR KIYIMINI GAVDADA KIYDIRILGAN HOLATDA CHIZISH

Modalar jurnalini ko'zdan kechirib, kostumlarining eskizlari o'z grafikaviy modasiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Gavda rasmi shartli sxematik tarzda berilgan, chunki rassom kiyimdagi qandaydir yangilikni bo'rttirish uchun kuzatuvchining e'tiborini kiyimga jalb qiladi. Shunday moda jurnallari borki, ularda model konstruksiyasi aniq ifodalanmaydi, moda siluetining yangi yo'nalishi faqat eskiz tarzida beriladi. Bu eskiz yangi shakl va rejalar haqida ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Faqat tajribali mutaxassislarigina eskizlar asosida modelning haqiqiy konstruksiyasini aniqlay oladi. Gavdadagi kiyim rasmini chizish qo'shimchalarini egallashgina jurnalidagi rasmlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. Modalar jurnalidagi siluetlarning proporsiyalari, odatda, haqiqiy siluetlar proporsiyalaridan farq qiladi. Chunki ularda ayni zamondagi modalar an'anasi bo'rtiriladi, jurnallarda tananing normal proporsiyalaridan farq qiladigan g'oyat uzun shaklli siluetni uchratish mumkin.

Ishlab chiqarish uchun tavsiya qilinadigan kiyim modelining rasmi quyidagi uch asosiy talablarga javob berishi lozim:

1. Ayni modelni qanday bajarish, silueti qandayligi, qanday gazlamadan foydalanish kerakligini aniqlash mumkin bo'ladigan darajada tushunarli bo'lishi lozim.

2. Estetik vazifani o'tashi kerak, aks holda rasm e'tiborni jalb qila olmaydi. Yaxshi chizilgan rasm qiyofalari uyg'unli, tonlarining to'g'ri uyg'unlashganligi, chiziqlarning to'g'ri nisbatligi bilan ajralib turadi.

3. Rasmda kiyimning haqiqiy proporsiyalari, shuningdek, konstruksiyasi aks etishi kerak, bu esa kiyim tikish usulini aniqlashga imkon beradi.

Shakl tuzilishini uni yorug'lik, soya va ton vositalari yordamida fazoviy aks ettira olgan kishigina chiziqlar, ton dog'lari, shtrixlar yordamida hajmni aks ettirishga o'rganishi mumkin. Chiziq yoki dog'lar qancha kam bo'lsa, tasvirni ifodali chiqarish shuncha qiyin bo'ladi. Har bir tikuvchi modalardagi o'zga-

rishtlarni bilib borish uchun jurnaldagi rasmlarni, vaqtli matbuotda chiqqan modalar illustratsiyalarini, fotosuratlar, saqlab qo'yishi kerak.

Kiyim eskizini odam gavdasi qiyofasi bo'yicha ishlab chiqarishdan maqsad gavda emas, balki kiyim rasmini yaratishdir. Ish jarayonida quyidagi cheklashlarga rioya qilish kerak: gavda rasmi dastlabki rasm, kiyimlar rasmi esa eskiz ijro qismi deb ataladi. Gavda rasmini chizishda bir proporsional asosga tayanamiz. Kiyim modeli eskizini chizishda bir proporsional faqat yelka, ko'krak va bel chiziqlarini saqlab qolamiz biz unda tana aslini belgilaymiz, ya'ni uni, xuddi 37-rasmda berilgandek, xomaki rasm va eskiz uchun qoldiramiz. Bunday proporsional asos gavdaning vertikal holatdagi istalgan rasmini chizish uchun mo'ljall bo'ladi. Gavda sxemasini aniqlagandan so'ng bilinar-bilinmas ingichka chiziqlar bilan modelning siluetini belgilaymiz. Siluet modelini hisobga olgan holda, ya'ni to'la, kelishgan va h.k. qomat uchun rejalashtirish lozim.

Model bichimining rasmini chizishdan oldin siluetni gorizontal bo'yicha rejalaymiz. Agar kiyim yaxlit bichimli emas, kesma bo'lsa, u yaxlit kiyimning qanday qismini tashkil qilishini va qirqish chizig'i qayerdan o'tishini aniqlab, vertikal bo'yicha siluet qismlarining vitochka relyeflarini, taqilmalarini belgilaymiz, so'ngra kiyim detallari: yoqa, yeng, cho'ntaklar va hokazolar rasmini chizamiz. Barcha detallarni bir-biriga nisbatan mutanosibligini tekshirish va aniqlash lozim. Rasmini uzoqdan turib tekshirish kerak, shunda xatolari yaxshiroq ko'rinadi.



37-rasm. Ayollar kostumining oldidan va burilgan holatdagi (torsdagi) rasmini chizish.


Kiyim modellari konstruksiyasiga binoan turli-tuman bo'ladi. Kiyim odamning tashqi qiyofasini belgilaydi. Kiyim yordamida odamning tashqi qiyofasini, ko'rinishini o'zgartirib yuborish, gavda tuzilishidagi kamchiliklarni yashirish, bo'yini uzaytirib yoki kattalashtirib ko'rsatish, oriqlikni bldirmaslik, gavda qismlari mutanosibligi nisbatini o'zgartirish mumkin. Kiyim rangi odam terisining tusiga, ko'ziga, sochining rangiga ta'sir qilishi mumkin. Kostum (ayniqsa soch qiyofasi bilan birgalikda) kishining fe'l-atvorini belgilaydi.

Ko'ylak-bluzka va lifning rasmini chizish. Har qanday kiyim rasmini chizishdan oldin uni tasavvur qilishingiz, aslidan yoki modalar jurnalidan ko'rishingiz kerak. Ular quyidagi tartibda tuziladi:

1. Byust qiyofasi bo'yicha ko'ylak lifning qiyofasini belgilaymiz. Agar lozim bo'lsa, lifning gorizontaal va vertikal qismlarini aniqlaymiz.
2. Yoqa, koketka, vitochka va h.k. konturlarini belgilaymiz.
3. Rasmning ikir-chikirlarigacha chizib, bitiramiz.

Kiyim modellari rasmlarida simmetriya prinsipiga rioya qilish kerak. Bu qoida buyumni cho'ntak, taqilma, yoqa va h.k. detallariga taalluqlidir. Tugmalar rasmi o'z chizig'i bo'yicha joylashtiriladi. Agar taqilma surilgan, ya'ni asimmetrik bo'lsa, u ko'krakning o'rtasiga chizig'i parallel o'tgan vertikal chiziq yordamida aniqlanadi. Bluzka rasmini chizishda ularning shakli turli xarakterda bo'lishga ahamiyat berish kerak. Ular tig'iz yopishib turadigan, yarim yopishib turadigan, to'g'ri va keng bichimli, mayin bo'lishi mumkin.

Jamiyat moddiy hayotining ko'p tomonlari kiyim-boshda o'z ifodasini topadi. Kiyim material, shakli va bichimiga qarab, kishining hayot tarzi, u yashaydigan iqlim, sharoiti haqida fikr yuritamiz. Hozirgi vaqtda estetik talablarga ham, jamiyatning ratsional ehtiyojlariga ham javob beradigan kiyimlar yaratilmoqda. Kiyim modeliga gazlamani to'g'ri tanlash uchun uning tanasini yaxshi bilish kerak. Gazlamaning xarakteristikasi aniqlangandan keyingina, uning yozgi yoki qishki, bolalar yoki erkaklar, kundalik va h.k. kiyimlari tikish uchun yaroqliligi aniqlanadi. Kiyim modeli kiyimning gavdasi, tipi va tuzilishiga qarab tanlanadi. Model rasmini chizganda tabiiy proporsiyali kelishgan qad-qomat tasvirlanadi. Biroq moda erkaklar hamda ayollar kiyimidagi turli siluetlarning mavjudligini hisobga olgan



38-rasm. Kalta ko'ylaklar rasmini chizish.

holda rivojlanib boradi. Ayollar kiyimi modelining rasmini chizishdan oldin siluetni aniqlab olish kerak. Ayollar kiyimi modellari bichim jihatdan turli-tuman bo'ladi. Ko'ylakda quyidagi detallarni ajratib ko'rsatish mumkin: lif, yubka, yenglar. Bular birgalikda butun kiyim garmoniyasini hosil qiladi. Kiyim bichish va siluetiga qarab bu detallar har xil shaklda bo'ladi. Yoqa, manjet, belbog', cho'ntak va boshqa elementlar qo'shimcha elementlar hisoblanadi. U bichishga, siluetga mos bo'lishi, kiyimning kompozitsion yechimida o'zaro proporsional bog'lanishda bo'lishi lozim.

Yubkalar rasmini chizish. Yubkalar rasmini ham ma'lum tartibda chizish kerak. Yubka ko'p kiyimlarning tarkibiy qismi bo'lib, ayni vaqtda ko'ylakning mustaqil qismi hisoblanadi. Uni ayol gavdasi torsining qiyofasiga muvofiq bluzka bilan birga, shuningdek, 39-rasmga ko'rsatilgandek, faqat son kamari qiyofasi bo'yicha chiziladi.


1. Tomonlarning nisbati 1:2 bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklik yasab, o'rta chiziq chizamiz.

2. Bel, sonlar chizig'ida va tizza chizig'ida tayanch nuqtani belgilaymiz.

3. Yubkaning vertikal va gorizontaal qismlarini belgilaymiz.

4. Rasmini uzil-kesil chizib tugatamiz. Rasmdagi chiziq har xil yo'g'onlikda bo'lishi kerak.

Ayollar ko'ylagi rasmini chizish. Modaning o'zgarishi kiyimga ham o'zgarish kiritadi, (yelka, bel, son chiziqlari) ko'ylakning uzunligi ham o'zgaradi. Ayollar kiyimining yelka qismi tabiiy shaklda: kengaytirilgan, toraytirilgan erkin lifli, yopishib turadigan; bel chizig'i tabiiy, ya'ni bel chizig'ida, undan yuqoriroq yoki pastroq bo'lishi mumkin. Eskiz rasmini chizishda vertikal



39-rasm. Yubkalar rasmini chizish.

chiziq, vitochka, relyefga ahamiyat berish kerak. Modelning ko'rkam chiqishi, ko'pincha, siluetni mohirona qismlarga ajratishga bog'liq. Ko'ylaklar rasmini sxema bo'yicha quyidagi tartibda chizamiz:

1. Tors va kalla proporsiyalarini belgilaymiz. Gavdaning holatiga qarab ularning buriilishini aniqlaymiz.


2. Byust va kallaning buriilishini belgilab, ko'krak qavariqligi o'q chizig'i va yuz chizig'ini belgilaymiz.

3. Qo'l va oyoqlar yo'nalishini oyoq tovonlarining holatida belgilaymiz.


4. Gavdaning holati va proporsiyalari tanlanadi, so'ng ko'ylak modulini eskiz harakat xarakteri bilib turadigan qilib chiziladi.

5. Ko'ylak modulining rasmini ingichka chiziqlar bilan chizgandan so'ng kalla va oyoqlar shakllari aniqlanadi. Niho-yasiga yetgan rasmda odam gavdasi go'yo kiyim orqali ko'rinish turgandek bo'lishi kerak.

6. Rasmda uzil-kesil bitgan ko'rinish berish uchun yo'l qo'yilgan xatolar tuzatiladi. Ortiqcha chiziqlar o'chiriladi.



40-rasm. Gavdadagi ko'ylak rasmini chizish.



41-rasm. Gavdaning burilgan holatida ayollar ko'ylaklari rasmini chizish.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarishga tavsiya qilinadigan modellar qanday talablarga javob berishi lozim?
2. Gavda rasmini chizishda nimalarga tayanamiz?
3. Kiyimlar odamlarning qanday xususiyatlarini belgilaydi?

Adabiyotlar

1. Р.М. Букина. Чизмачилик ва maxsus rasmlar chizishi. — Т.: Уқитмучи, 1978.
2. А.П. Розова. Эркаслар ва болалар уст кийимини конструкциялаш асослари. — Т.: Уқитмучи, 1988.
3. Е.А. Янчук. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. — Т.: «Уқитмучи», 1996.


V.3. ERKAKLAR GAVDA TUZILISHINI SXEMA BO'YICHA CHIZISH

Odam gavdasini chizishda, shuningdek, kiyim modelining rasmini chizish uchun kanondan foydalanish qulay va oson. Bu kanonda modul sifatida gavdaga sakkiz marta joylashadigan kalla balandligi olinadi. Gavda rasmini chizish uchun qog'ozdagi vertikal chiziq naturadagi shovun rasm chizishning birinchi bosqichida kerak bo'ladigan mo'ljallargina, xolos. Ular gavda asosiy shakllarining o'zaro joylashuvini aniqlashga imkon beradi. Bar-cha burilish holatlaridagi bosqichlarni tushuntirib o'tirishning hojati yo'q, biz faqat gavdani olddan tasvirlash ustida to'xtalib o'tamiz.

Qog'oz listga rasmning kompozitsion joylashuvini aniqlaymiz, uning balandligini chiziqlar bilan belgilaymiz va uni sakkiz bo'lakka bo'lamiz. Tos balandligi belgilanadi, u o'rta gorizontaal chiziqda yotadi. Birinchi modul chegarasida kalla joylashadi. So'ngra navbatdagi bo'linmada ko'krak chizig'i o'tadi. Ko'krak chizig'idani pastga bel chizig'ini, bel chizig'idani pastga (toqov suyaklari birlashgan bo'g'imgacha) son chizig'ini, son chizig'idani pastga sonning o'rtasini, son o'rtasidan pastga tizza kosachasining pastki chegarasi chizig'ini belgilaymiz. Tizzadan pastga boldir o'rtasi chizig'i, boldir o'rtasidan pastga tovon tagi chizig'i chiziladi.

Yelka chizig'i iyak chizig'idani modulning uchdan bir qismicha pastroq o'tadi. Yelka kamarining eni ikki modulga, bo'yin eni modulning yarmiga, bel kengligi bir modulga teng. Son eni grafikaviy tarzda quyidagicha aniqlanadi: agar yelka va bel nuqtalari birlashtirilib, hosil bo'lgan chiziqning ko'krak chizig'i bilan kesishish nuqtalaridan vertikal chiziq o'tkazilsa, simmetriya o'qi hosil bo'ladi.

Oyoq-qo'llar rasmini chizish ancha murakkab. Buning uchun ancha kuzatish hamda asldan va xayolan rasm chizishni mashq qilish kerak. Sxematik tasvirlash uchun yelka, bilak, panja, boldir, tovonning umumiy proporsiyalarini, ularning rejalanihi va rasmning yasalanishi o'zlashtirib olish kifoya.



42-rasm. Erkaklar
gavdasini sxemalardan
foydalanib chizish.

Tovon rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki, uning balandligi modulning uchdan bir qismiga yoki oyoq yarmining beshdan bir qismiga teng. Odam gavdasining olddan ko'rinishini perspektiv tasvirlashda oyoq barmoqlari tovon sathidan taxminan modulning uchdan bir qismicha pastroqda yotadi. Agar odam gavdasini oldidan kuzatsangiz buni o'zingiz ham sezishingiz mumkin.

Qo'llar har xil holatda bo'ladi. Bir qo'l tushirilgan, ikkinchi qo'l tirsakdan bukilgan bo'lishi mumkin. Yelka kamarining belgilangan sxema bo'yicha (yelkani to'rt bo'lakka bo'lganda) gavda rasmini chizish uchun barcha ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Yelka enining nuqtasi orqali bel chizig'iga vertikal chiziq tushiramiz. Shu tariqa tirsak bo'g'inining vaziyatini hosil qilamiz. Ko'krak chizig'ining chekka nuqtasi orqali bel chizig'igacha vertikal chiziq tushirganimizda yelka kamaridan to tirsak bo'g'inigacha qo'l yo'nalishini hosil qilamiz.

Qo'lning anatomik tuzilishidan ma'lumki, u uchta richagga: yelka suyaklarini yo'naltiradigan, bilakni va qo'l panjalarini yo'naltiradigan richagga ega. Agar qo'lning ayrim qismlarini taqqoslasak, yelka qismi bilak qismidan, bilak esa panjalaridan uzunroq ekanligini ko'ramiz.

Tushirilgan qo'l uchi sonning o'rtasigacha keladi. Bukilgan qo'l tirsagi bel chizig'ida turadi. Bukilgan qo'l tirsak bo'g'inining vaziyatini topish uchun yelka o'rtasidan bel chizig'igacha


masofada yoy o'tkaziladi, bukilgan qo'l tirsagi shu yoyda yotadi. Bukilgan qo'l rasmini chizishda erkaklar gavdasida bu nuqtani (yoy markazi o'rinda olib) yelka eni tomonga biroz surish kerak, chunki erkaklar qo'li ayollarnikiga qaraganda uzunroq bo'ladi.

Barcha bo'limlar tushirilgandan va tayanch nuqtalar belgilangandan so'ng odam gavdasining anatomik tuzilishini hisobga olgan holda erkak gavdasining rasmini solishga kirishamiz. Shuni aytish kerakki, gavda rasmi to'g'ri chizilganda bo'yin eni modulning yarmiga teng bo'lgan silindri eslatadi, ko'krak qafasining yuqorisi bel chizig'idan kengroq bo'ladi. Uning yon konturlari to'g'ri chiziqlar hisoblanmaydi.

Gavdaning faqat olddan ko'rinishi rasmini chizish to'g'risida batafsil gapirildi. Boshqa burilgan holatdagi gavda rasmini chizishni o'quvchilar olingan tajribaga asoslangan holda o'zlari mustaqil o'rganishlari lozim.

Burilgan holatdagi byustni tasvirlashda ba'zan yangi rasm chizish usullarini uchratamiz. Tana biroz burilganda o'rta chiziq ko'krak atrofida biroz bukilish hisobga olinadi. Bukilish xarakteri biz qanday buyumning rasmini chizishimizga bog'liq. Burilgan holatdagi byustning rasmi perspektiv qisqarishlarni hisobga olgan holda chiziladi.

Faraz qilaylik, gorizont chizig'i bel chizig'i sathidan o'tsin. Byust o'ngga burilganda ko'krakning qavariqligi chizig'i chapdan tasvirlanadi va aksincha. Bu chiziqni bo'yin umurt-qasining yettinchisidan boshlab chizamiz.



43-rasm. Erkaklar
byusti va torsining
rasmini chizish.

Vertikal chiziq o'tkazib, unga uchta modulni o'lchab qo'yamiz. Gorizontal yelka chizig'ida bizga ma'lum usul bilan yelka kamari sxemasini belgilaymiz. U chiziq bo'yicha bo'yning yuqori nuqtasidan yana bir modul kattaligini qo'yib, bel chizig'ini hosil qilamiz.

Har qaysi yelkaning o'rta nuqtalaridan ko'krak qavariqligi yo'nalishida yoysimon chiziqlar o'tkazamiz, bu chiziqlar ko'krakning tashqi shaklini bo'rttirib turadi va ko'kraklar orasidagi masofani belgilaydi. So'ngra yo'g'on ko'krak muskullari chizig'i chiziladi. Erkak byustining tashqi shakllari moslangandan so'ng rasm bitgan hisoblanadi. Byustning bir necha rasmini chizib, so'ngra ular asosida o'z kiyimingiz modelini ishlab chiqsangiz yanada foydalibroq bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Odam gavdasining sxemasini chizishda nimadan foydalaniladi?
2. Qo'llarni tasvirlashda nimani hisobga olish kerak?
3. Boldirning eni qanday aniqlanadi?
4. Bukilganda qo'l uchi gavdaning qayerida turadi?
5. Gavda buriqan vaziyatda qanday tartibda joylashadi?

Adabiyotlar

1. Р.М. Букана. Чизмачилик ва махсуе расмлар чизши. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А.П. Рогова. Эркаслар ва болалар уст кийимни конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.
3. Е.А. Ячевский. Аёллар уст кийимни конструкциялаш. — Т.: «Ўқитувчи», 1996.

V.4. ERKAKLAR KIYIMINI GAVDADA KIYDIRILGAN HOLATDA CHIZISH


Erkaklar kiyimi rasmini chizishdan oldin uni tasavvur qilish, u aslida va modalar jurnalida qanday bo'lishini sinchiklab ko'rish kerak. Rasmi chiziladigan modelning silueti, bichimi va shakli qanday bo'lishini hal qilish lozim.

Erkaklar kiyimi rasmi quyidagi tartibda chiziladi:

1. Torsning proporsional sxemasi belgilab olinadi.
2. Siluetni belgilab, bilinar-bilinmas ingichka chiziq bilan umumiy konturi aniqlab olinadi (siluet yarimyo'pishma, bel va yelka chiziqlari tabiiy bo'ladi).
3. Yelka va cho'ntaklarning shakli, taqilma va yenglarning tashqi konturlari tanlanadi.
4. Barcha detallarining proporsiyalari, ularning o'zaro nisbati tekshiriladi va aniqlik kiritiladi. Bunda yaxlitdan detallarga, detallardan yaxlitga prinsipida ish ko'riladi.
5. Rasm uzil-kesil ishlanadi. Tasvirning ifodali chiqishiga intilish kerak. Buning uchun yo'g'on-ingichka chiziqlardan foydalanish yoki qisman shtrixlash kerak. Siluetning xarakterli chiziqlari yo'g'on chiziq bilan aniq bo'rttirilishi shart. Bunda yorug'lik manbayining qayerda turganligi hisobga olinadi.

Erkaklar kostumining rasmini proporsional sxemada chizishda beshta modulga yana ikkita — boldir va tovon modulini ham qo'shish lozim. Erkaklar kostumi rasmini chizish yetti modulli proporsional asosdan boshlanadi. Kostum siluetini aniqlab, rasmni pidjak rasmini chizishdagi tartibda chizamiz. Kostumning qismlari va yaxlit kostum rasmi ishlab bo'lingandan so'ng mustaqil ravishda yangi kiyim modeli va fasonlarini yaratish mumkin. Kiyim eskizlarini tayyorlashda eng muhim narsa odam gavdasining tasviri emas, balki kiyim rasmidir. Kiyim rasmi — eskizning ijro qismi. Gavdani tasvirlaganda biz uning proporsional asosiga tayanamiz, u bizga kelgusida gavdaning turli holatlardagi rasmini chizishda ham yordam beradi.

Agar rasm chizish ko'nikmangiz yetarli bo'lib, ko'z bilan chamalash, ko'rish xotirasi, fasonni his qila olish malakasi sizda



44-rasm. Erkaklar
pidjagining rasmini
chizish.


bo'lsa, proporsional asos rasmning rejalash qismi sifatida qoladi. Xomaki rasmda u o'q chiziq sifatida belgilanib, ko'z bilan chamalanib, sakkizta teng bo'lakka bo'linadi.

Kiyim modeli eskizini ishlab chiqishda biz sxemada faqat yelka, ko'krak, bel chiziqlarini qoldiramiz va tana asosini belgilaymiz.

Skelet, avvalo, mustahkam suyak tayanch vazifasini o'taydi, u gavdaning butun massasini tutib turadi. Shuning uchun odam gavdasining har bir statik yoki dinamik holatiga skelet mexanizmi asosiy qismlarining ma'lum vaziyati to'g'ri keladi. Qog'ozda bu vaziyatni shartli sxema yordamida aks ettirish mumkin, bu sxema kiyim modeli eskizining xomaki rasmini chizishda yordamchi rol o'ynaydi. Sxema soddagina, yodda yaxshi qoladi.

Ingichka chiziqlar bilan bilinar-bilinmas chizilgan sxema naturani kuzatish natijalarini, tananing istalgan statik holatini, tana vaziyatini, murakkab burilishini ancha ishonarli aks ettirishi mumkin. Bu sxemani yasash bilan bir vaqtda eskizning o'lehami va joylashtirilishi aniqlanadi, chunki ko'rindigan asos, yengil tayanch paydo bo'ladi. Bunga asoslanib, gavda rasmini chizish, proporsiyani aniqlash va belgilangan model konturini yasash mumkin. Bunday sxema tik turgan odam gavdasining istalgan holatdagi rasmini chizish uchun mo'ljallangan.

Rejalashdan so'ng model xususiyatlari: to'liq, kelishgan qomat va h.k.larni hisobga olib, modelning soddalashtirilgan silueti belgilanadi. Gorizonttal bo'yicha modelning bichimi: pidjak, shim, kiyim detallari (cho'ntak, yoqa va h.k.), so'ngra



45-rasm. Erkaklarning
gavdadagi kiyim rasmini chizish.


vertikal bo'yicha: relyef, vitochka, taqilmalar o'rni belgilanadi.

Barcha detallarning o'zaro va yaxlit modelga nisbatan proporsiyalarini tekshirish va aniqlashtirish kerak. Buning uchun rasm bir qo'l uzunligichalik masofadan ko'zdan kechiriladi. Shunda xato va noaniqliklar yaxshi ko'rinadi.

Kiyim modeli rasmini chizib, barcha proporsiyalarni aniqlashtirib bo'lgach, tasvirning ifodali chiqishi haqida o'ylash kerak. Eskiz qalam bilan ham, akvarel bo'yloqlar bilan ham chizilishi mumkin. Barcha chiziqlar aniq bo'lishi va bo'yloqlar o'ylab tanlanishi kerak.

Gavdaning burilgan holatdagi sxemasini chizish tartibi 46-rasmda ko'rsatilgan. Gavdaning burilgan holatida yelkalar, ko'krak, bel, sonlar, oyoq tovonlarining parallel chiziqlari gorizonttal chizig'ida yotadigan nuqtada uchrashadi. Gorizonttal chizig'ini istalgan joyda tasavvur qilish qiyin. Gavda tasviri tabiiy chiqishi uchun gorizonttal chizig'i ko'krak sathida yoki biroz pastroq bo'lishi kerak. Gavda burilganda o'miz va orqaning bir qismi, torsning ikkinchi tomonidan esa siluet ko'rinadi.

Gavdaning istalgan holatdagi rasmini chizish uchun munozaraviy ravishda naturani kuzatish va xomaki rasmlarni chizish kerak. Bunda gavda harakati sxematik tarzda aks ettiriladi. Oyoq va qo'llarning rasmini chizishda harakatdagi eng xarakterli elementlar tanlash, asosiylarini aks ettirish, ikir-chikirlariga berilmaslik lozim. Bundan tashqari, oyoqni tasvirlash uchun qabul qilingan proporsiyalar eslanadi. Qo'lning tasviri kabi unda ham uchta asosiy o'q bo'ladi: uski o'q sonning yo'nalishini, o'rta o'q tirsak muskullarining boldirdagi yo'nalishini, pastki o'q tovon yo'nalishini ko'rsatadi. Oyoqning toson bo'g'inidan tovonigacha uzunligi butun gavda balandligining taxminan yarmiga teng, yo'g'on boldir va son suyaklarining birikkan



46-rasm. Gavdaning
burilgan holatida pidjak
rasmini chizish.

qismidan boshlab to tizza kosa-
chasining pastki chetigacha oyoq
balandligi ikkiga bo'linadi.

Boldir — tovon bo'g'ini atrofidan
to'pning eni uchdan bir qismiga
bo'linadi. Oyoqning barmoqlar cheti
bo'yicha kengligi modulning tax-
minan yarmiga teng.

Nazorat savollari

1. Erkaklar kiyimi qanday tartibda chiziladi?
2. Kontur nima?
3. Kiyim eskizi nima uchun ishlab chiqiladi?
4. Rasmning to'g'ri chizilganligi qanday aniqlanadi?
5. Oyoqni to'g'ri tasvirlash qanday ahamiyatga ega?

Adabiyotlar

1. Р.М. Букина. Чизмачилик ва махсуе расмлар чизми. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. А.П. Рогова. Эркаслар ва болалар уст кийимини конструкциялаш асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1988.
3. Е.А. Янцеский. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. — Т.: «Ўқитувчи», 1996.

V.5. BOLALARDA GAVDA TUZILISHINI SXEMA BO'YICHA CHIZISH

Tikuvchilik ishlab chiqarish mutaxassislari odam gavdasining tuzilishi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi va uning rasmini chiza olishi kerak. Kiyim fasonlarini to'g'ri yaratish uchun ayol, erkak, o'smir, bola gavdasi orasidagi proporsional tafovutni tasavvur qila olish lozim. Maktab o'quvchilari biologiya darslarida odam anatomiyasi haqida dastlabki ma'lumotlarni olganliklari bu vazifani ancha yengillashtiradi. Ularga odam gavdasi asosiy elementlarining o'zaro joylashuvi, skelet asosiy qismlarining nomlari (tos suyagi, umurtqa pog'onasi, ko'krak qafasi, bosh suyagi, son, boldir va hokazo) ma'lum. Odam gavdasi tashqi qiyofasining skelet bilan doimiy organik aloqasini ongda saqlab qolish uchun shu ma'lumot va bilimlar kifoya. Odam gavdasi tuzilishida skelet mustahkam tayanch vazifasini o'taydi: u gavda og'irligini tutib turadi, qo'zg'almas holatda turishga, holatni o'zgartirishga, harakatlanishga imkon beradi. Odam gavdasining har bir statik yoki dinamik holatiga asosiy qismlarning ma'lum holatlari to'g'ri keladi.


Odamning plastikaviy anatomiyasi gavda tashqi qiyofasini hamda uni belgilaydigan ichki tuzilishi xususiyatlarini o'rganadi. Ushbu qo'llanmada tikuvchilik sanoati xodimlari odam gavdasini to'g'ri va tushunib chizishlari uchun bilishlari shart bo'lgan ba'zi o'lcham hamda proporsiyalarning qisqacha tavsifi berilgan. Har bir odamning ko'krak qafasi shakli har xil bo'ladi. Ular qisqa va keng, uzun va ensiz bo'lishi mumkin. Gavda harakatlanganda (burilganda va engashganda) ko'krak qafasi shakli ham o'zgaradi.

Bolalarning tashqi qiyofasi tuzilishida muskullarning ahamiyati katta. Muskullarning zo'rqi shi va kuch darajasi qomatdagi tafovutni hamda muskul relyefining ifodaligini belgilaydi. Bolalarning, umuman, odam gavdasidagi muskullarning soni 300 dan ortadi. Turli-tuman alomatlariga ko'ra har qaysi muskulga alohida nom berilgan: vazifasiga ko'ra bukuvchi, yozuvchi, yaqinlashtiruvchi, uzoqlashtiruvchi: shakliga qarab

deltasimon, trapetsiyasimon; joylanishiga ko'ra — o'mrov osti suyak usti; boshlanish va yopishishi joyiga ko'ra — yelka-bilak, o'mrov-yelka; kallaklari soniga ko'ra ikki kallakli, to'rt kallakli, tuzilishiga ko'ra yarimpay muskullar. Muskullar turli-tuman shaklda bo'ladi. Bu har xillik ularning vazifasidan kelib chiqadi.

Har xil davrlarda turli xalqlar gavdasi go'zalligini va uning mutanosibligini o'zlaricha tushunganlar. Yuqorida eslatilganidek, gavdaning go'zal bo'lishi qaddi-qomatning raso bo'lishiga bog'liq. Odamning qaddi-qomati raso bo'lsa, gavdasi zo'riqman holda, doim tik turadigan holatni saqlaydi, yelkalar biroz orqaga tashlangan va qorni ichiga tortilgan bo'ladi. Shunday qaddi-qomat chiroyli hisoblanadi: qaddi-qomati raso kishilarning yurishi ham yumshoq, harakatlari mayin, erkin, ichki organlarining hammasi to'g'ri holatda joylashgan bo'ladi. Qaddi-qomatning noraso bo'lishi organizmning hayot faoliyati, jumladan, yurak, o'pka, jigar, me'da hamda ichaklarning ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning qaddi-qomati hayotining birinchi yilidan shakllana boshlaydi. Tanasidagi barcha mushaklarning bir tekisda rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Umurtqa pog'onasini tutib turadigan mushaklar, shuningdek, qorin mushaklarining notekis yoki sust rivojlanishi qomatning noto'g'ri shakllanishiga, ba'zan esa umurtqa pog'onasining qiyshayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bolaning go'dakligidan boshlab qomati to'g'ri o'sishiga



47-rasm. Bolalar gavdasini sxemalardan foydalanib chizish.

e'tibor berish zarur. Qaddi-qomatning noraso bo'lishi va umurtqa pog'onasining qiyshayib qolishiga asosiy sabab gavdani noto'g'ri tutish, ya'ni bukchayish, yelka va chanoqni qiyshiq tutishga odatlanib qolish, partada yoki stulda noto'g'ri o'tirishdir.

Bolani to'g'ri yurish, o'tirish va tik turishga (bosh, yelkalarini biroz orqaga tashlagan holda tutish va tik turishga) odatlantirib borish kerak. Agar bolaning ko'zi yaxshi ko'rmasa, ko'pincha gavdasini bukchaytirib oladi, shuning uchun bolalar ko'zini vaqti-vaqti bilan tekshirtirib turish zarur. Yorug'lik tushmasa ham qaddi-qomat buziladi. Shuning uchun bolaning yoshini inobatga olgan holda rejim asosida u bilan shug'ullanish kerak.

Bolalarni yosh jihatidan beshta guruhga bo'lish mumkin: yasli guruhi — bir yoshdan uch yoshgacha; maktab yoshidagi kichik bolalar — 3 yoshdan 7 yoshgacha; maktab yoshidagi kichik bolalar guruhi — 7 yoshdan 12 yoshgacha; maktab yoshidagi katta bolalar (o'smirlar) guruhi — 12 yoshdan 15 yoshgacha; yoshlar guruhi — 15 yoshdan 17 yoshgacha. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarda kalla moduli gavda balandligiga 4—5 marta joylashadi. Qog'oz listga uning kompozitsion joylashuvini aniqlaymiz. Vertikal chiziq chizib uni bo'laklarga bo'lamiz. Birinchi modul chegarasida kalla joylashadi, so'ngra ko'krak, ko'krak chizig'idan pastga bel chizig'i, bel chizig'idan pastga son chizig'i, son chizig'idan pastga sonning o'rtasini, son o'rtasidan pastga tizza kosachasi pastining pastki chegarasi chizig'ini belgilaymiz. Tizzadan pastga boldir o'rtasi chizig'i, boldir o'rtasidan pastga tovon tagi chizig'i chiziladi.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarda kalla o'lchamiga vertikal bo'yicha butun gavda uzunligiga nisbatan taxminan 1: 5,5—1:6 bo'ladi. Bunday bolalarning oyoqlari kalta bo'lib, uzunligi hayotning birinchi davrida chotdan tovongacha bo'lgan balandlikning 1/3 ini, qo'llarining uzunligi esa bu yilning 2/5 ini tashkil etadi. Bu yoshdagi bolalar kindigi go'yo gavda markazi hisoblanadi. Rasmni chizishda shartli ravishda vertikal chiziq tarzida aks ettiriladigan umurtqa ustuni anatomik tayanch sterjen vazifasini o'taydi.

Bolalar gavdasining sxemasini chizishda kanondan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning gavdasi shakli o'zgaradi. Modul gavda bo'yicha besh marta joylashadi, bo'yinlari uzayadi. Gavdani chizishda nima uchun kanondan foydalanish 8-mavzuda bayon qilingan, uch yoshdan yetti

yoshgacha bo'lgan bolalarning bo'yin balandligi yuzining uchdan biriga, yo'g'onligi esa yuzining yarmiga (uzunlik bo'yicha) teng. Biz faqat gavdani oldidan tasvirlash ustida to'xtalamiz.

7 — 12 yoshlik bolalarda kalla o'lchamining gavda uzunligiga nisbati vertikal bo'yicha 1:6 — 1:6,5, tana uzunlik bo'yining uchdan birini tashkil etadi, kalla cho'ziq shaklda bo'ladi.

12 — 15 yoshgacha bo'lgan bolalarda kalla o'lchamining gavda uzunligiga nisbati vertikal bo'yicha 1:7, tanasi ancha kalta bo'lgan holda oyoq va qo'llari cho'zilganligi ko'rinadi. Bunday bolalarning yelkasi tor bo'ladi. 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'g'il va qiz bolalarning gavdasidagi mutanosiblik katta yoshdagi odam gavda mutanosibligiga yaqinlashadi. Masalan, kalla o'lchamining gavda uzunligiga nisbati vertikal bo'yicha 1:7,5 ga yetadi. Yoshi kattalashgan sari gavda qismlarining barcha o'lchamlari o'zgaradi. Butun o'sish davrida kalla ikki marta, tana uch marta, qo'llar to'rt marta, oyoqlar besh marta, bo'y yetti marta kattalashadi.

Nazorat savollari

1. Odam gavdasining asosiy elementlarini sanab bering.
2. Gavdadagi skelet qanday vazifani bajaradi?
3. Plastikaviy anatomiya nima?
4. Mutanosib gavda deganda nimani tushunish kerak?
5. Bola gavdasi kattalashgan sari unda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Adabiyotlar

1. P.M. Бужина. Чизмачилик ва махсус расмлар чизму. — Т.: Ўқитувчи, 1978.
2. Уй-рўзор энциклопедияси.
3. И. Норманос. Камалак яшайдан уй. — Т.: «Ўқитувчи», 1983.


V.6. BOLALAR KIYIMINI GAVDADA KIYDIRILGAN HOLATDA CHIZISH



Kiyim modellari rasmini chizishda gavda tuzilishining yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim, chunki ular kiyim shaklini belgilaydi. Katta yoshdagi kishilar kiyimi modellari rasmini chizishda ularning bo'yi deyarli o'smasligi hisobga olinadi. Bu esa shakllanib bo'lgan gavdani tasvirlashning asosiy nuqtalari va kamarlar sistemasini o'rnatishga imkon beradi. Bolalarning bo'yi esa kundan kunga o'sadi, shuning uchun bolalar kiyimi rasmini chizishga boshqacharoq yondashishga to'g'ri keladi. Bu holda ham katta yoshdagi kishilar gavdasi rasmini chizishda to'plangan kuzatish va ko'nikmalarga tayanamiz.

Bolalarning tashqi qiyofasi xususiyatlarini hisobga olib, kiyim modellari rasmini chizishni yasli yoshidagi — 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar kiyimidan boshlaymiz. Bunday yoshdagi bolalarning yelkasi tor, beli bilinmaydigan, qorni qap-pagan, tanasi uzun, qo'l va oyoqlari kalta bo'ladi.

Bolalar kundan kunga o'sgani uchun bolalar kiyimi mo-dellarining rasmi shartli sxema bo'yicha chiziladi. Bolalar kiyimi yelkasiga yostiqa qo'yilishi, keng bichimli bo'lishi kerak. Kvadrat (yoki yosh guruhiga bog'liq holda har xil tomonli to'g'ri to'rtburchaklik) proporsional rejaga asos qilib olinadi. Bunga sabab shuki, bola tanasining uzunligi yelka kamari eniga yaqin bo'ladi.



Rasmdan ko'rinib turibdiki, bolalar ko'ylagi rasmining yasali shi juda oddiy, shuning uchun burilgan vaziyatdagi rasmini chizishni batafsil tushuntirishning hojati yo'q.





48-rasm. Yasli yoshdagi bolalar kiyimi rasmini chizish.

Sxemaning proporsional rejasini belgilab, vertikal o'rta chiziqni o'tkazamiz. Ustki gorizontal chiziqni 4 bo'lakka bo'lamiz. A va B nuqtalar bo'yin enini, keyingi ikki bo'lak yelka enini bildiradi. Yelkaning qiyaligi ixtiyoriy olinadi, u kvadrat vertikal tomonning taxminan chorak qismini tashkil etadi. Asosiy siluet — pastki tomon kengayib boradi, chunki kiyim bolaning xarakteriga halaqit bermasligi kerak. Siluet yelka kamaridan boshlab kengayadi, bu yoshdagi bolalar kiyimida vertikal va gorizontal qismlar bo'lishi mumkin. Yeng, koketka, cho'ntaklar turli shaklda bo'ladi. Bunday yoshdagi bolalarning bo'yi past bo'ladi, shuning uchun yoqa yelka kamarida yotadi va tiklamasi bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi gavdasining shakli o'zgaradi, modul gavda bo'yiga 5 marta joylashadi, bo'yinlari uzayadi. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar uchun ikki asosiy siluet: yelka va ko'krak kamarlaridan boshlab pastga tomon kengaygan hamda etagi kengaygan to'g'ri bichimli lif xarakterli. Kiyim rasmini chizish jadvali quyidagicha: tomonlarning nisbati 1:1,5 bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yasaymiz,




49-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimi rasmini chizish.

yelka kamarini yasli guruhidagi bolalar kiyimida o'xshatib chizamiz, bu yosh guruhidagi bolalar uchun siluetni beldan yuqori yoki pastroqda gorizontal qismlarga ajratish xarakterli.

Yetti yoshlik bola, ayniqsa, o'g'il bolaning qomati ko'r-kamlashadi, chunki oyoqlari uzayib, bel ingichkalashadi.

7 — 9 yoshlik bolalar ko'ylagi rasmini chizishda tomonlarning nisbati 1:2 bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklik asos qilib olinadi.

Bu to'g'ri to'rtburchaklikning yuqori gorizontal chizig'i to'rt bo'lakka bo'linadi. Yelkaning qiyaligi ixtiyoriy, lekin modaga qarab tanlanadi. Bel chizig'i to'g'ri to'rtburchaklikni teng ikkiga



50-rasm. Bolalar kiyimlari rasmini chizish.


bo'ladi. Bola maktabga borgandan so'ng unda yangi mashg'ulot va vazifalar paydo bo'ladi, kiyim-boshiga maktab formasi, mehnat va turli sport kiyimlari qo'shiladi. Shu yosh guruhi chegarasida gavda proporsiyasining o'zgarishi bilan kiyim shakli va bel chizig'i holatining o'zgarishi tabiiydir.

Kichik maktab yoshidagi qizlar uchun quyidagi: 7 — 8 yoshda — etagi kengaygan, to'g'ri bichimli, keng; 9 — 11 yoshda — gavdaga yarim yopishib turadigan va etagi kengaygan siluetlar xarakterli. Kichik yoshdagi bolalar guruhi kiyimlarining siluetlari to'g'ri bichimli va yarim yopishib turadigan, shimlari esa kalta yoki uzun bo'ladi.

9 — 11 yoshli o'g'il bolalarga gavdaga yarim yopishib turadigan siluetli kiyim juda yarashadi, chunki bu yoshdagi bolalarning gavdasi ancha kelishgan bo'ladi.

12 — 13 yoshdagi qiz bolalar va 13 — 14 yoshdagi o'g'il bolalar gavdasining proporsiyasi o'zgaradi (modulga gavda yetti marta joylashadi).

Qiz bolaning soni yo'g'onlashadi, ko'kragi bo'rtadi, beli ingichkalashadi, o'g'il bolalarning yelkasi kengayadi, sonlari yelkaga nisbatan ingichkalashadi. Shu tufayli bellar yaqqol




51-rasm. O'quvchilar kiyimi rasmini chizish.

bilinadi. Rasm sxemasi 1:2,5 nisbatli to'g'ri to'rtburchaklikdan iborat. Yelka kamari xuddi oldingi guruhdek yasaladi, bel chizig'i to'g'ri to'rtburchaklikning o'rtasidan yuqoriroqdan o'tadi.

O'g'il bolalar kostumining rasmini chizganda to'g'ri to'rtburchaklikni 1:3,5 nisbatda uzaytirish kerak.

14 yoshdan boshlab o'smirlar gavdasi jadal shakllana boshlaydi. O'spirin gavdasining proporsiyalari katta yoshdagi kishilarnikiga yaqinlashadi: bo'yni, oyoq-qo'llari hali ingichka, dumaloqlashmagan bo'ladi.



52-rasm. Qizlar kiyimi
rasmini chizish.

O'smir ko'kragi rivojlanadi, bel shakllanadi.

O'smirlar gavdasining proporsiyalari: vertikal bo'yicha kallaning tana uzunligiga nisbati o'lchami 1:7,5. Kiyim modeli rasmini chizishdagi sxema quyida ko'rsatilgan.

Tomonlarning nisbati 1:3 bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklik. Bel chizig'i katta maktab yoshdagi bolalar guruhi uchun model sxemasidagidan biroz yuqoriroqdan o'tadi.

O'smir qizlar modellarning siluetlari gavadaga yopishib, belni aniq bo'rttirib turadi, yubka kengayib boradi.

Kompozitsiyaning asosi hisoblangan siluet o'smirlar kiyimlarida turli-tuman bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Bolalar kiyimi modelini chizishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
2. Kontur nima?
3. Kiyim eskizi nima uchun ishlab chiqariladi?
4. Rasmi to'g'ri tasvirlash qanday ahamiyatga ega?
5. Oyoqni to'g'ri tasvirlash qanday ahamiyatga ega?

Adabiyotlar

1. P.M. Букнина. Чизмачилик ва махсуе расмлар чизиш. — Т.: Уқитувчи, 1978.
2. А.П. Розова. Эркаслар ва болалар уст кийимни конструкциялаш асослари. — Т.: Уқитувчи, 1996.
3. Уй-рўзгор энциклопедияси.
4. Е.А. Янческий. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. — Т.: «Уқитувчи», 1978.

MUNDARIJA

I. Kirish

- 1.1. Fanning tikuvchilik sanoatini rivojlantirishdagi va kiyim modelini yaratish hamda konstruksiyasini qurishdagi o'rnini.....3
- 1.2. Perspektiva va kompozitsiya haqida tushuncha. Geometrik jismlar rasmini chizish.....7
- 1.3. Geometrik shaklga ega bo'lgan jismlarni chizish.....13
- 1.4. Yorug'lik — soya yordamida jismining hajmini tasvirlash.....17
- 1.5. Naturmort chizish.....21

II. Mato to'shalgan holda hosil bo'ladigan taxlama va soyalar

- II.1. Drapirovkalar, taxlamalar va soyalar. Drapirovka va taxlamalar rasmini chizish.....24
- II.2. Uy anjomlari va jismlarini soya asosida chizish.....27

III. Kishi tana tuzilishidagi nisbiylik

- III.1. Bolalar tana tuzilishidagi nisbiylik.....31
- III.2. Ayollar tana tuzilishidagi nisbiylik.....35
- III.3. Erkaklar tana tuzilishidagi nisbiylik.....38
- III.4. Kishi kalla tuzilishidagi nisbiylik.....41
- III.5. Oyoq va qo'llar rasmini chizish.....47

IV. Ranglar to'g'risida tushuncha

- IV.1. Xromatik va axromatik ranglar.....51
- IV.2. Milliy naqsh va ranglar jadvali.....55

V. Kiyim modellarini chizish. Kishi gavdasi buriilgan (FAS) holatida kiyim bilan chizish

- V.1. Ayollar gavda tuzilishini sxema bo'yicha chizish.....59
- V.2. Ayollar kiyimini gavdada kiydirilgan holatda chizish.....63
- V.3. Erkaklar gavda tuzilishini sxema bo'yicha chizish.....69
- V.4. Erkaklar kiyimini gavdada kiydirilgan holatda chizish.....73
- V.5. Bolalarda gavda tuzilishini sxema bo'yicha chizish.....77
- V.6. Bolalar kiyimini gavdada kiydirilgan holatda chizish.....81

Saida Fazliddinova

MAXSUS RASM

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Qayta ishlangan va to'ldirilgan oltinchi nashri

Muharrirlar A. Akbar, X. Po'latxo'jayev

Rassom A. Bahromov

Badiiy muharrir S. Kurbanov

Texnik muharrir Y. Tolochko

Musahhih U. Rajabova

Kompyuterda teruvchi G. Azizova

«VNESHINVESTPROM» nashriyoti

Toshkent sh., O'zbekiston shohko'chasi. 16a-uy

Nashriyot litsenziyasi AI №242, 04.07.2013 y.

www.vipgroup.uz

e-mail: info@vipgroup.uz

Original maket "CHO'LPON" NMIU ga tegishli

2014-yil 24-dekabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/16.

Tayms Tad garnituras. Ofset bosma. 5,5 shartli bosma toboq.

6,52 nashr bosma tobog'i. Adadi 2432 nusxa.

55-raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi

100128, Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

Bizning Internet manzilimiz: www.gglit.uz

E-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz



**Cho'lon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi**

